5. $\forall$ - ixtiyoriy, barcha, har qanday degan ma'noni anglatadi: Masa-lan, F to'plam 3 ga karrali natural sonlar to'plami, E – barcha natural sonlar to'plami degan mulohaza qilsa, u holda F ning barcha elementlari E ning elementlaridir, degan ma'noni beradi. Bu tasdiqni $F \subset E \Leftrightarrow (\forall a \in F \Rightarrow a \in E)$.

6. $\exists$ - “shunday”, “mavjud” degan ma'noni anglatadi. “ E va F to'plamlarning umumiy elementi mavjud emas” degan tasdiqni $F \not\subset E \Leftrightarrow (\exists a \in F \Rightarrow a \notin E)$ ko'rinishida yozish mumkin.

$\forall$ va $\exists$ belgilar kvantorlar deyiladi. Bu belgilar matematikaga mansub bo'lib, mantiqqa aloqador emas.

7. $\nexists$ - mavjud emas ma'nosini anglatadi (inkor etish amalidir). $a < 0$ bo'lsa, $a \Rightarrow \{n \notin \mathbb{R}, \Rightarrow n^2 = a\}$.

Biror E mulohazaning inkori deb E chin bo'lganda yolg'on, E yolg'on bo'lganda chin bo'ladigan yangi mulohazaga aytiladi va $\bar{E}$ bilan belgilanadi. E – “5 – murakkab son”, u holda $\bar{E}$ - “5 – tub son”. Bu yerda E yolg'on, $\bar{E}$ chin mulohazadir.

Har qanday matematik nazariya u yoki bu matematik jumlaning rost yoki yolg'onligini o'rganadi.

Ta'rif: Rost yoki yolg'onligi bir qiymatli aniqlangan darak gapga jumla (mulohaza) deyiladi.

Ta'rifga ko'ra “ $0 < 1$ ”, “ $2 \times 5 = 10$ ”, “7 – juft son”, “1 – tub son” gaplar mulohaza bo'lib, ulardan birinchisi va ikkinchisi rost, uchinchisi va to'rtinchisi yolg'on mulohazalardir.

Mulohazalar ustida bajariladigan inkor, kon'yunksiya, dizyunksiya, implikatsiya, ekvivalensiya amallari mavjud.

1. Inkor amali.

Ta’rif: p mulohazaning inkori deb p rost bo’lganda yolg’on, p yolg’on bo’lganda rost bo’ladigan mulohazaga aytiladi.

Inkor amaliga quyidagi rostlik jadvali mos keladi:

P	$\neg p$
1	0
0	1

2. Konyuksiya amali.

Ta’rif: p va q mulohazalarning konyuksiyasi deb p va q mulohazalar rost bo’lganda rost, boshqa hollarda yolg’on bo’lgan yangi mulohazaga aytiladi va uni $p \wedge q$ yoki $p \& q$ ko’rinishlarda belgilanadi.

Konyuksiya amaliga “va” bog’lovchisi mos keladi.

Masalan, p : “5-tub son”,

q : “5-toq son”,

$p \wedge q$: “5-tub va toq son”.

Konyuksiya amaliga quyidagi rostlik jadvali mos keladi:

P	Q	$p \wedge q$
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	0

3. Dizyunksiya amali.

Ta’rif: p va q mulohazalarning dizyunksiyasi deb p va q mulohazalarning kamida bittasi rost bo’lganda rost, boshqa hollarda yolg’on bo’lgan yangi mulohazaga aytiladi va u $p \vee q$ orqali belgilanadi.

Dizyunksiya amaliga “yoki” bog’lovchisi mos keladi.

Masalan, p : “ $3 < 4$ ” - rost,

q : “ $3 = 4$ ” - yolg’on,

$p \vee q$: “ $3 \leq 4$ ” - rost.

Dizyunksiya amaliga quyidagi rostlik jadvali mos keladi:

P	Q	$p \vee q$
1	1	1
1	0	1
0	1	1
0	0	0

4. Implikatsiya amali.

Ta'rif: p va q mulohazalarning implikatsiyasi deb p rost, q yolg'on bo'lganda yolg'on, boshqa hollarda rost bo'lgan yangi mulohazaga aytiladi va uni $p \Rightarrow q$ ko'rinishda belgilanadi.

Implikatsiya amaliga "agar ..., bo'lsa, u holda, ... bo'ladi" kabi bog'lovchi so'zlar mos keladi.

Masalan, p : " $5 \cdot 5 = 25$ " – rost, q : " $6 \cdot 6 = 36$ " – rost, $p \Rightarrow q$: "Agar $5 \cdot 5 = 25$ bo'lsa, u holda $6 \cdot 6 = 36$ " bo'ladi – rost.

$p \Rightarrow q$ implikatsiya quyidagicha o'qiladi: " p dan q kelib chiqadi", " p bo'lishi uchun q ning bo'lishi zarur", " p mulohaza q mulohaza uchun etarli".

Implikatsiya amaliga quyidagi rostlik jadvali mos keladi:

P	Q	$p \Rightarrow q$
1	1	1
1	0	0
0	1	1
0	0	1

5. Ekvivalensiya amali.

Ta'rif: p va q mulohazalarning ekvivalensiyasi deb p va q larning bir xil qiymatlarida rost, turli qiymatlarida yolg'on bo'lgan yangi mulohazaga aytiladi va uni $p \Leftrightarrow q$ ko'rinishda belgilanadi.

Masalan, p : "berilgan natural son 3 ga bo'linadi", q : "berilgan sonning raqamlar yig'indisi 3 ga bo'linadi".

$p \Leftrightarrow q$: "Berilgan sonning 3 ga bo'linishi uchun uning raqamlari yig'indisi 3 ga bo'linishi zarur va yetarli".

Ekvivalensiya amaliga quyidagi rostlik jadvali mos keladi:

P	Q	$p \Leftrightarrow q$
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	1

1-misol. $\overline{A \Rightarrow B} \Leftrightarrow (C \vee A)$ formula orqali berilgan mantiqiy mulohazaning rostlik jadvalini tuzing.

Yechish: $\overline{A \Rightarrow B} \Leftrightarrow (C \vee A)$ mulohazaning rostlik jadvali quyidagicha bo'ladi:

A	B	C	$A \Rightarrow B$	$\overline{A \Rightarrow B}$	$C \vee A$	$\overline{A \Rightarrow B} \Leftrightarrow (C \vee A)$
1	1	1	0	1	1	0

1	1	1	0	1	1	0
1	0	0	1	1	1	1
1	0	0	1	0	0	0
0	1	1	0	1	1	0
0	1	1	0	1	1	0
0	0	1	0	1	1	0
0	0	1	0	0	0	1

2-misol. $x \wedge y \vee \overline{x \vee y} \vee x$ formula orqali berilgan mantiqiy mulohazaning rostlik jadvalini tuzing.

Yechish: Quyidagicha ketma-ketlik hosil qilamiz.

O'zgaruvchi		Oraliq mantiqiy formulalar					Yechim
X	Y	$\bar{x}$	$\bar{x} \wedge y$	$x \vee y$	$\overline{x \vee y}$	$\bar{x} \wedge y \vee \overline{x \vee y}$	$\bar{x} \wedge y \vee \overline{x \vee y} \vee x$
0	0	1	0	0	1	1	1
0	1	1	1	1	0	1	1
1	0	0	0	1	0	0	1
1	1	0	0	1	0	0	1

3-misol. $\overline{x \vee y \vee \bar{x} \wedge z}$ formula orqali berilgan mantiqiy mulohazaning rostlik jadvalini tuzing.

Yechish: Quyidagicha ketma-ketlik hosil bo'ladi.

O'zgaruvchi			Oraliq mantiqiy formulalar					Yechim
X	Y	Z	$\bar{y}$	$x \vee \bar{y}$	$\overline{x \vee \bar{y}}$	$\bar{x}$	$\bar{x} \wedge z$	$\overline{x \vee y \vee \bar{x} \wedge z}$
0	0	0	1	1	0	1	0	0
0	0	1	1	1	0	1	1	1
0	1	0	0	0	1	1	0	1
0	1	1	0	0	1	1	1	1
1	0	0	1	1	0	0	0	0
1	0	1	1	1	0	0	0	0
1	1	0	0	1	0	0	0	0
1	1	1	0	1	0	0	0	0

4-misol. Masalan: «129 soni 3 ga bo'linadi, faqat uning raqamlari yig'indisi 3 ga bo'linsa.»

Yechish: a mulohaza – «129 soni 3 ga bo'linadi».

b mulohaza – «129 sonini raqamlar yig'indisi 3 ga bo'linadi».

Ikki mulohaza ham chin bo'lganligi uchun ekvivalensiya ham chin. Ikkala mulohaza yolg'on bo'lsa, u holda ham ekvivalensiya chin bo'ladi. Masalan: «127 soni 3 ga bo'linadi, faqat 127 sonining raqamlar yig'indisi 3 ga bo'linsa» - bu holda a va b lar ikkalasi ham yolg'on.

5-Misol Masalan: $X = \{6;10;15;20;24\}$ to'plamda $A(x)$: « x juft son», $B(x)$: « x soni 3 ga karrali» predikatlari berilgan bo'lsin.

Yechish: U holda $A(x)$ va $B(x)$ predikatlar kon'yunksiyasi predikati $A(x) \wedge B(x)$ « x soni juft va 3 ga karrali». $A(x)$ predikatning chinlik sohasi $\{6; 10; 20; 24\}$

$B(x)$ predikatning chinlik sohasi $\{6; 15; 24\}$ bo'ladi.

$A(x) \wedge B(x)$ predikatning chinlik sohasi $\{6; 24\}$ bo'ladi.

$\{6; 24\}$ – to'plam esa $A(x)$ va $B(x)$ predikatlar chinlik kesishmasidan iborat bo'ladi.

6-misol . a) $\neg A \vee \neg B$, b) $\neg A \wedge B$ logikalik aytimga sáykes shunliq kestesin duziń.

A	B	$\neg A$	$\neg B$	$\neg A \vee \neg B$
1	1	0	0	0
1	0	0	1	1
0	1	1	0	1
0	0	1	1	1

A	B	$\neg A$	$\neg A \wedge B$
1	1	0	0
1	0	0	0
0	1	1	1
0	0	1	0

7-misol. Eger $A = "5 \cdot 2 = 5^2"$, $B = "12\text{-jup san}"$ bolsa, a) $A \wedge B$, b) $A \vee B \vee \neg A$ c) $\neg A \vee B$, d) $\neg A \vee B \wedge A$, e) $(\neg A \vee B) \wedge \neg A$ ámellerin orinlań.

Sheshiliwi. Másele shártine muwapıq: $A=0$, $B=1$ mániske iye. Bunnan $\neg A=1$ hám

a) $A \wedge B = 0 \cdot 1 = 0$, b) $A \vee B \vee \neg A = 0 + 1 + 1 = 1 + 1 = 1$, c) $\neg A \vee B = 1 + 1 = 1$,

d) $\neg A \vee B \wedge A = 1 + 1 \cdot 0 = 1 + 0 = 1$, e) $(\neg A \vee B) \wedge \neg A = (1 + 1) \cdot 1 = 1 \cdot 1 = 1$

boladı.

8-misol. Eger $A \vee B \wedge C = \text{ras}$ bolsa, neshe jaǵdayda orınlı boladı?

Sheshiliwi. Másele shártine muwapıq ózgeriwshiler úshew bolǵanlıqtan $2^3 = 8$ kombinaciya boladı:

A	B	C	$B \wedge C$	$A \vee (B \wedge C)$
0	0	0	0	0
0	0	1	0	0
0	1	0	0	0
0	1	1	1	1
1	0	0	0	1
1	0	1	0	1
1	1	0	0	1
1	1	1	1	1

9-misol. $(A \vee \bar{B}) \wedge C \Rightarrow A \wedge C$ formulani'n' barli'q naborlardag'i' ma'nislerin shi'nli'q kestesini ja'rdeminde esaplan'.

Sheshiliwi. Bul formulani'n' u'les formulalari' to'mendegishe boladı:

$$A, B, C, \bar{B}, A \vee \bar{B}, A \wedge C, (A \vee \bar{B}) \wedge C, (A \vee \bar{B}) \wedge C \Rightarrow A \wedge C$$

A	B	C	$\bar{B}$	$A \vee \bar{B}$	$A \wedge C$	$(A \vee \bar{B}) \wedge C$	$(A \vee \bar{B}) \wedge C \Rightarrow A \wedge C$
1	1	1	0	1	1	1	1
1	1	0	0	1	0	0	1
1	0	1	1	1	1	1	1
1	0	0	1	1	0	0	1
0	1	1	0	0	0	0	1
0	1	0	0	0	0	0	1
0	0	1	1	1	0	1	0
0	0	0	1	1	0	0	1

10-misol. $A \wedge (\overline{A \vee \bar{B}})$ formulasi' BJ formula ekenligin ko'rsetemiz:

Sheshiliwi.

A	B	$\bar{B}$	$A \vee \bar{B}$	$\overline{(A \vee \bar{B})}$	$A \wedge (\overline{A \vee \bar{B}})$
1	1	0	1	0	0
1	0	1	1	0	0
0	1	0	0	1	0
0	0	1	1	0	0

11-misol. $(A \vee \bar{B}) \wedge C \Rightarrow A \wedge C$ formulani'n' barli'q naborlardag'i' ma'nislerin shi'nli'q kestesi ja'rdeminde esaplan'.

Sheshiliwi. Bul formulani'n' u'les formulalari' to'mendegishe boladi':

$$A, B, C, \bar{B}, A \vee \bar{B}, A \wedge C, (A \vee \bar{B}) \wedge C, (A \vee \bar{B}) \wedge C \Rightarrow A \wedge C$$

A	B	C	$\bar{B}$	$A \vee \bar{B}$	$A \wedge C$	$(A \vee \bar{B}) \wedge C$	$(A \vee \bar{B}) \wedge C \Rightarrow A \wedge C$
1	1	1	0	1	1	1	1
1	1	0	0	1	0	0	1
1	0	1	1	1	1	1	1
1	0	0	1	1	0	0	1
0	1	1	0	0	0	0	1
0	1	0	0	0	0	0	1
0	0	1	1	1	0	1	0
0	0	0	1	1	0	0	1

12-misol. $A \wedge (\overline{A \vee \bar{B}})$ formulasi' BJ formula ekenligin ko'rsetemiz:

Sheshiliwi.

A	B	$\bar{B}$	$A \vee \bar{B}$	$\overline{(A \vee \bar{B})}$	$A \wedge \overline{(A \vee \bar{B})}$
1	1	0	1	0	0
1	0	1	1	0	0
0	1	0	0	1	0
0	0	1	1	0	0

13-misol. $x \wedge y \vee \overline{x \vee y} \vee x$ formula orqali berilgan mantiqiy mulohazaning rostlik jadvalini tuzing.

Yechish: Quyidagicha ketma-ketlik hosil qilamiz.

O'zgaruvchi		Oraliq mantiqiy formulalar					Yechim
X	y	$\bar{x}$	$\bar{x} \wedge y$	$x \vee y$	$\overline{x \vee y}$	$\bar{x} \wedge y \vee \overline{x \vee y}$	$\bar{x} \wedge y \vee \overline{x \vee y} \vee x$
0	0	1	0	0	1	1	1
0	1	1	1	1	0	1	1
1	0	0	0	1	0	0	1
1	1	0	0	1	0	0	1

14-misol. $\overline{x \vee y \vee \bar{x} \wedge z}$ formula orqali berilgan mantiqiy mulohazaning rostlik jadvalini tuzing.

Yechish: Quyidagicha ketma-ketlik hosil bo'ladi.

O'zgaruvchi			Oraliq mantiqiy formulalar					Yechim
X	Y	Z	$\bar{y}$	$x \vee \bar{y}$	$\overline{x \vee \bar{y}}$	$\bar{x}$	$\bar{x} \wedge z$	$\overline{x \vee y \vee \bar{x} \wedge z}$
0	0	0	1	1	0	1	0	0
0	0	1	1	1	0	1	1	1
0	1	0	0	0	1	1	0	1
0	1	1	0	0	1	1	1	1
1	0	0	1	1	0	0	0	0
1	0	1	1	1	0	0	0	0
1	1	0	0	1	0	0	0	0
1	1	1	0	1	0	0	0	0

3-Amaliy mashg'ulot

Tekislikda ikkinchi tartibli egri chiziq tenglamalari. Ellips. Giperbola. Parabola

Aylana.

Markazi (a, b) nuqtada va radiusi R bo'lgan aylana tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$(x - a)^2 + (y - b)^2 = R^2. \quad (1)$$

1-misol. Markazi $S(-1;1)$ nuqtada, radiusi 3 birlik bo'lgan aylana tenglamasini tuzing.

Echish. SHartga ko'ra aylana markazining koordinatlari $a = -1$; $b = 1$ va $R = 3$. Berilganlarni (1) formulaga qo'yib, aylana tenglamasini tuzamiz.

$$\begin{aligned}(x + 1)^2 + (y - 1)^2 &= 3^2 \\(x + 1)^2 + (y - 1)^2 &= 9.\end{aligned}$$

2-misol. $x^2 + y^2 - 6x + 4y - 23 = 0$ aylananing markazi va radiusi topilsin.


Echish. $x^2 + y^2 - 6x + 4y - 23 = 0$ berilgan tenglamaning chap tomonini to'la kvadratdan iborat ifodalarga ajratamiz.

$$\begin{aligned}(x^2 - 6x + 9) + (y^2 + 4y + 4) - 13 - 23 &= 0 \\(x - 3)^2 + (y + 2)^2 - 36 &= 0 \\(x - 3)^2 + (y + 2)^2 &= 6^2\end{aligned}$$

bu tenglamani (1) tenglama bilan solishtirsak, $(3; -2)$ nuqta aylana markazi, radiusi $R = 6$ bo'ladi.

Ellips

Ta'rif. Ellips deb, xar bir nuqtasidan berilgan ikki F_1 va F_2 nuqtagacha (fokuslargacha) masofalarining yig'indisi $F_1 F_2$ dan katta o'zgarmas $2a$ mikdorga teng nuqtalarning geometrik o'rniga aytiladi.



1 – chizma.

Ellipsning kanonik tenglamasi

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (1)$$

ko'rinishda bo'lib, ellips koordinat o'qlariga nisbatan simmetrikdir. a va b parametrlar mos ravishda katta va kichik ellipsning yarim o'qlari deyiladi.

$a > b$ bo'lsin, u holda F_1 va F_2 fokuslar Ox o'qda bo'lib, koordinatlar boshidan

$c = \sqrt{a^2 - b^2}$ masofada bo'ladi. $\frac{c}{a} = \varepsilon < 1$ nisbat ellipsning eksentrisiteti deyiladi.

Ellipsning $M(x, y)$ nuqtasidan fokuslargacha bo'lgan masofalar (fokal radius - vektorlar)

$$r_1 = a - \varepsilon x, \quad r_2 = a + \varepsilon x \quad (2)$$

formulalar bilan aniqlanadi.

Agar $a < b$ bo'lsa, fokuslar Oy o'qda bo'lib,

$$c = \sqrt{b^2 - a^2}, \quad \varepsilon = \frac{c}{b}, \quad r = b \pm \varepsilon y \text{ bo'ladi.}$$

1- misol. Katta yarim o'qi $a = 5$ va eksentrisiteti $\varepsilon = 0,6$ bo'lgan holda ellipsning kanonik tenglamasini toping.

$$\varepsilon = \frac{c}{a} = 0,6$$

Echish. Shartga ko'ra .

Demak, fokuslar orasidagi masofaning yarmi $c = a \cdot 0,6 = 5 \cdot 0,6 = 3$ bo'ladi.

Ellips kichik yarim o'qining kvadrati $b^2 = a^2 - c^2 = 25 - 9 = 16$ bo'lib, ellipsning izlanayotgan kanonik tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{x^2}{25} + \frac{y^2}{16} = 1$$

2- misol. $M(2; 3)$ nuqtadan o'tuvchi, katta yarim o'qi $a = 4$ bo'lgan ellipsning kanonik tenglamasini tuzing.

Echish. $a = 4$ bo'lganda ellipsning kanonik tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\frac{x^2}{16} + \frac{y^2}{b^2} = 1$$

bo'ladi. $M(2; 3)$ nuqtaning koordinatlari bu tenglamani qanoatlantirishi kerak.

$$\frac{2^2}{16} + \frac{(-3)^2}{b^2} = 1$$

Demak, $\frac{2^2}{16} + \frac{(-3)^2}{b^2} = 1$. Bundan $b^2 = 12$ ni bo'lib va uni yuqoridagi tenglamaga qo'ysak, ellipsning izlangan kanonik tenglamasini xosil qilamiz:

$$\frac{x^2}{16} + \frac{y^2}{12} = 1$$

Giperbola

Ta'rif. Giperbola deb shunday nuqtalarning geometrik o'rniga aytiladiki, ularning xar biridan berilgan ikki F_1 va F_2 nuqtagacha (fokuslargacha) bo'lgan masofalar ayirmasining absolyut qiymati o'zgarmas $2a$ ($0 < 2a < F_1F_2$) miqdordan iboratdir. Giperbolaning kanonik tenglamasi:

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (1)$$

1) bo'lib, giperbola koordinat o'qlariga nisbatan simmetrikdir.

Giperbola Ox o'qni uchlar deb ataluvchi $A_1(a,0)$, $A_2(-a;0)$ nuqtalarda kesadi, Oy o'qi bilan esa kesishmaydi. a parametr xaqiqiy yarim o'q, b esa mABxum yarim o'q deyiladi.

$c = \sqrt{a^2 + b^2}$ parametr koordinatlar boshidan fokusgacha bo'lgan masofani

bildiradi. $\frac{c}{a} = \varepsilon > 1$ nisbat giperbolaning eksuentrisiteti deyiladi.

$y = \pm \frac{b}{a}x$ to'g'ri chiziqlar giperbolaning asimptotalari deyiladi. $M(x;y)$ nuqtalardan fokuslargacha bo'lgan masofalar (fokal radius - vektorlar):

$$r_1 = |\varepsilon x - a|, \quad r_2 = |\varepsilon x + a| \quad (2)$$

formulalar orqali aniqlanadi.

Agar $a=b$ bo'lsa, giperbola teng tomonli giperbola deb ataladi. Uning tenglamasi $x^2 - y^2 = a^2$, asimptotalarining tenglamalari esa $y = \pm x$ bo'ladi.

$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$ va $\frac{y^2}{b^2} - \frac{x^2}{a^2} = 1$ giperbolalar qo'shma giperbolalar deyiladi.

1-misol. Fokuslari orasidagi masofa 26 ga, eksuentrisiteti esa $\frac{13}{12}$ ga tengligini bilgan xolda giperbolaning kanonik tenglamasini tuzing.

Echish. SHartga ko'ra $2c = 26$ va $\varepsilon = \frac{c}{a} = \frac{13}{12}$. Demak, giperbolaning katta yarim

o'qi $a = 12$, $c = \frac{26}{2} = 13$; $c^2 = a^2 + b^2$ formulaga ko'ra giperbolaning kichik yarim o'qi

$$b = \sqrt{c^2 - a^2} = \sqrt{13^2 - 12^2} = 5$$

bo'ladi. Giperbola tenglamasining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{x^2}{144} - \frac{y^2}{25} = 1$$

2 – misol. O'qlari koordinat o'qlari bilan ustma–ust tushadigan giperbola $M_1(-3; \frac{\sqrt{2}}{2})$ va $M_2(4; -2)$ nuqtalar orqali o'tadi. Uning kanonik tenglamasini toping.

Echish. Giperbolaning kanonik tenglamasini yozamiz: $\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$. Bu

tenglamani $M_1(-3; \frac{\sqrt{2}}{2})$ va $M_2(4; -2)$ nuqtalarning koordinatlari qanoatlantiradi. Demak,

$$\frac{(-3)^2}{a^2} - \frac{(\frac{\sqrt{2}}{2})^2}{b^2} = 1 \quad \text{va} \quad \frac{4^2}{a^2} - \frac{(-2)^2}{b^2} = 1$$

$$\text{yoki} \quad \frac{9}{a^2} - \frac{\frac{1}{2}}{b^2} = 1 \quad \text{va} \quad \frac{16}{a^2} - \frac{4}{b^2} = 1$$

Bundan $a^2 = 8$ va $b^2 = 4$ ni topamiz va uni giperbolaning kanonik tenglamasiga qo'yamiz xamda quyidagini xosil qilamiz:

$$\frac{x^2}{8} - \frac{y^2}{4} = 1$$

Parabola

Ta'rif. Berilgan nuqtadan (fokusdan) va berilgan to'g'ri chiziqdan (direktrisadan) bir xil uzoqliqda bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rni parabola deyiladi.

Parabolaning kanonik tenglamasi quyidagi ikki ko'rinishga ega:

1) $y^2 = 2px$ Ox o'qqa nisbatan simmetrik parabola.

2) $x^2 = 2py$ Oy o'qqa nisbatan simmetrik parabola.

Xar ikki xolda xam parabolaning uchi, ya'ni simmetriya o'qida yotuvchi nuqtasi,

koordinatlar boshida bo'ladi. Parabola $F(\frac{p}{2}; 0)$ fokus va $x = -\frac{p}{2}$ direktrisaga ega;

uning $M(x, y)$ nuqtasining fokal radius – vektori $r = x + \frac{p}{2}$. $x^2 = 2py$ parabola

$F(0; \frac{p}{2})$ fokus va $y = -\frac{p}{2}$ direktrisaga ega; uning $M(x, y)$ nuqtasining fokal radius-

vektori $r = y + \frac{p}{2}$ bo'ladi.

1-misol. $y^2 = 6x$ parabola berilgan. Uning direktrisasi tenglamasini tuzing va fokusini toping.

Echish. Berilgan tenglamani parabolaning kanonik tenglamasi $y^2 = 2px$ bilan taqqoslab ko'ramizki, $2p = 6$, $p = 3$. Parabola direktrisasining tenglamasi $x = -\frac{p}{2}$ va fokusi $\frac{p}{2}$ va 0 koordinatlarga ega bo'lganidan, ko'rilyotgan xol uchun direktrisa tenglamasi $x = -\frac{3}{2}$ va fokus $F(\frac{3}{2}; 0)$ bo'ladi.

Tapsirmalar

1. $x^2 + 4y^2 = 16$ ellips yasalsin, uning fokuslari va eksuentrisiteti topilsin.
2. Agar ellipsning fokuslari orasidagi masofa 8 ga teng bo'lib, kichik yarim o'qi $b = 3$ bo'lsa, uning kanonik tenglamasi yozilsin.
3. Agar ellipsning katta yarim o'qi $a = 6$, eksuentrisiteti $\varepsilon = 0,5$ bo'lsa, uning kanonik tenglamasi yozilsin.
4. Ellipsning katta yarim o'qi $a = 5$ va c parametri 4,8 ga teng bo'lsa, uning kichik yarim o'qi b va eksuentrisiteti ε topilsin.
5. Ellipsning katta yarim o'qi $a = 5$ va c parametri 4 ga teng bo'lsa, uning kichik yarim o'qi b va eksuentrisiteti ε topilsin.
6. Ellipsning katta yarim o'qi $a = 5$ va c parametri 3 ga teng bo'lsa, uning kichik yarim o'qi b va eksuentrisiteti ε topilsin.
7. Fokuslari Ox o'qda yotuvchi ellips koordinat o'qlariga nisbatan simmetrik bo'lib, $M(-4; \sqrt{21})$ nuqtadan o'tadi va $\varepsilon = \frac{3}{4}$ eksuentrisitetga ega. Ellips tenglamasi yozilsin va M nuqtaning fokal radiuslari topilsin.
8. $x^2 + 2y^2 = 18$ ellipsning o'qlari orasidagi burchakni teng ikkiga bo'luvchi vatar uzunligi topilsin.
9. $9x^2 + 16y^2 = 114$ ellipsning eksuentrisitetini toping.
10. Giperbolaning haqiqiy o'qi 18 ga, fokuslari orasidagi masofa 24 ga teng bo'lsa, uning kanonik tenglamasini tuzing.
11. $\frac{x^2}{81} - \frac{y^2}{16} = 1$ giperbola tenglamasi berilgan. Giperbolaning haqiqiy va mavxum yarim o'qlarini, fokuslarini, eksuentrisitetini aniqlang.
12. $\frac{x^2}{5} - \frac{y^2}{20} = 1$ giperbola asimptotalarining tenglamalarini tuzing.

13. $y^2 = 12x$ parabola fokusining koordinatalarini toping va direktrisasining tenglamasini tuzing.

14. Direktrisasining tenglamasini $x = -3$ va $F(1;0)$ bo'lgan parabolaning tenglamasini tuzing.

4-Amaliy mashg'ulot

Fazoda koordinatalar metodi. Fazoda tekislik tenglamalari

Fazoda asosiy masalalar va tekislik tenglamalari.

1. Fazoda ikki nuqta orasidagi masofa, kesmani berilgan nisbatda bo'lish. Fazoda ikki A va V nuqta berilgan bo'lib, ularning koordinatlari mos ravishda $(x_1; y_1; z_1)$ va $(x_2; y_2; z_2)$ bo'lsin. Bu $A(x_1; y_1; z_1)$ va $B(x_2; y_2; z_2)$ nuqtalar orasidagi masofani topish formulasi:

$$AB = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2} \quad (1)$$

bo'ladi.

Fazoda $A(x_1; y_1; z_1)$ va $B(x_2; y_2; z_2)$ nuqtalar berilgan bo'lib, ularni tutashtirish natijasida AB kesmani berilgan $\lambda = \frac{AC}{CB}$ nisbatda bo'luvchi nuqtaning koordinatalari quyidagi

$$x = \frac{x_1 + \lambda x_2}{1 + \lambda}, \quad y = \frac{y_1 + \lambda y_2}{1 + \lambda}, \quad z = \frac{z_1 + \lambda z_2}{1 + \lambda} \quad (2)$$

formulalar bilan topiladi. Xususan, $C(x; y; z)$ nuqta AB kesmani teng ikkiga bo'lsa ($AC = CB$), u xolda $\frac{AC}{CB} = \lambda = 1$ bo'lib, izlanayotgan $C(x; y; z)$ nuqtaning x, y, z koordinatlari

$$x = \frac{x_1 + x_2}{2}, \quad y = \frac{y_1 + y_2}{2}, \quad z = \frac{z_1 + z_2}{2} \quad (3)$$

bo'ladi.

2. Fazoda tekislik tenglamalari.

1) $M_1(x_1; y_1; z_1)$ nuqtadan o'tuvchi va $\vec{N}\{A; B; C\}$ vektorga perpendikulyar tekislik tenglamasi.

$M(x; y; z)$ tekislikning ixtiyoriy nuqtasi bo'lsin. U xolda $M_1M \perp \vec{N}$ va ikki vektorning perpendikulyarlik shartiga ko'ra

$$A(x - x_1) + B(y - y_1) + C(z - z_1) = 0 \quad (4)$$

2) Tekislikning umumiy tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$Ax + By + Cz + D = 0 \quad (5)$$

$\vec{n}\{A;B;C\}$ vektor (4) yoki (5) tekislikka normal vektor deyiladi.

$Ax + By + Cz + D = 0$ tenglamaning xususiy xollari:

I. $D = 0$ bo'lganda, $Ax + By + Cz = 0$ - tekislik koordinatlar boshidan o'tadi.

II. $C = 0$ bo'lganda, $Ax + By + D = 0$ - tekislik Oz o'qqa parallel.

III. $C = D = 0$ bo'lganda, $Ax + By = 0$ - tekislik Oz o'qdan o'tadi.

IV. $B = C = 0$ bo'lganda, $Ax + D = 0$ - tekislik yOz tekislikka parallel.

V. Koordinat tekisliklarining tenglamalari: $x = 0, y = 0$ va $z = 0$.

4) Tekislikning koordinata o'qlaridan ajratgan kesmalar bo'yicha tenglamasi:

$$\frac{x}{a} + \frac{y}{b} + \frac{z}{c} = 1. \quad (6)$$

1-misol. $A(2;5;0), B(5;1;12)$ nuqtalar orasidagi masofa topilsin.

Echish. Bu nuqtalar orasidagi masofani (1) formuladan foydalanib topamiz:

$$AB = \sqrt{(5-2)^2 + (1-5)^2 + (12-0)^2} = \sqrt{3^2 + (-4)^2 + 12^2} = \sqrt{169} = 13.$$

2-misol. $M(2;-3;4)$ nukta orkali o'tuvchi va $\vec{n} = \{1;-1;4\}$ vektorga perpendikulyar tekislik tenglamasi tuzing.

Echish. Ma'lumki, berilgan $M_1(x_1, y_1, z_1)$ nuktadan o'tib, berilgan $\vec{n} = \{A, B, C\}$ vektorga perpendikulyar bo'lgan tekislikning tenglamasi

$A(x - x_1) + B(y - y_1) + C(z - z_1) = 0$ ko'rinishga ega. Masala shartidan

$$x_1 = 2; y_1 = -3; z_1 = 4;$$

$$A = 1; B = -1; C = 4$$

bularni yuqoridagi tenglamaga qo'yib, izlangan tekislik tenglamasini xosil kilamiz:

$$1(x - 2) - 1 \cdot (y + 3) + 4(z - 4) = 0 \Rightarrow x - 2 - y - 3 + 4z - 16 = 0 \Rightarrow x - y + 4z - 21 = 0$$

3-misol. $2x + 3y - 5z - 30 = 0$ tekislik berilgan. Bu tekislikning koordinat o'qlari bilan kesishish nuqtalarining koordinatlarini toping.

Echish. Tekislikning berilgan tenglamasini uning koordinat o'qlaridan kesgan kesmalari bo'yicha tenglamasi ko'rinishiga keltiramiz:

$$\frac{2x}{30} + \frac{3y}{30} - \frac{5z}{30} = 1 \quad \text{yoki} \quad \frac{x}{15} + \frac{y}{10} - \frac{z}{6} = 1.$$

Demak, tekislik Ox o'qini $(15;0;0)$, Oy o'qini $(0;10;0)$, Oz o'qini $(0;0;-6)$ nuqtalarda kesadi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Berilgan tekisliklar yasalsin:

$$\begin{aligned} 1) \quad & 5x - 2y + 3z - 10 = 0; \quad 2) \quad 3x + 2y - z = 0; \\ 3) \quad & 3x + 2z = 6; \quad 4) \quad 2z - 7 = 0 \end{aligned}$$

2. $M_1(0;-1;3)$ va $M_2(1;3;5)$ nuqtalar berilgan. M_1 nuqtadan o'tuvchi va $N = \overrightarrow{M_1M_2}$ vektorga perpendikulyar tekislik tenglamasi yozilsin.

3. $M_1(0;1;3)$ va $M_2(2;4;5)$ nuqtalardan o'tuvchi va Ox o'qqa parallel tekislik tenglamasi yozilsin va tekislik yasalsin.

4. 1) $2x + y - z + 6 = 0$; 2) $x - y - z = 0$; 3) $y - 2z + 8 = 0$;

4) $2x - 5 = 0$; 5) $x + z = 0$

tekisliklar yasalsin.

Tekislikka doir asosiy masalalar

Ikki tekislik orasidagi burchak

$$\cos \varphi = \pm \frac{\vec{N}\vec{N}_1}{NN_1} = \pm \frac{AA_1 + BB_1 + CC_1}{NN_1} \quad (1)$$

formuladan topiladi, bunda $\vec{N}$ va $\vec{N}_1$ mos ravishda $Ax + By + Cz + D = 0$ va $A_1x + B_1y + C_1z + D_1 = 0$ tekisliklarga normal vektorlar.

Parallellik sharti:

$$\frac{A}{A_1} = \frac{B}{B_1} = \frac{C}{C_1} \quad (2)$$

Perpendikulyarlik sharti:

$$AA_1 + BB_1 + CC_1 = 0 \quad (3)$$

2. $M_0(x_0; y_0; z_0)$ nuqtadan $Ax + By + Cz + D = 0$ tekislikkacha bo'lgan masofa

$$d = \frac{|Ax_0 + By_0 + Cz_0 + D|}{N} \quad (4)$$

3. Berilgan ikki tekislikning kesishgan chizig'idan o'tuvchi barcha tekisliklar dastasining tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\alpha(Ax + By + Cz + D) + \beta(A_1x + B_1y + C_1z + D_1) = 0 \quad (5)$$

$\alpha = 1$ deb olish mumkin, u holda (5) dastadan berilgan tekisliklardan ikkinchisini chiqarib tashlagan bo'lamiz.

1-misol. $2x + y = 5$, $x + 3z = 16$ va $5y - z = 10$ tekisliklarning o'zaro joylashishini aniqlang.

Echish. Bu tekisliklarining kesishishi- kesishishmasligini aniqlash uchun quyidagi sistemaning echimini topamiz:

$$\begin{cases} 2x + y = 5, \\ x + 3z = 16, \\ 5y - z = 10. \end{cases}$$

Sistemani echish uchun quyidagi determinantlarni tuzamiz va ularni hisoblaymiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 3 \\ 0 & 5 & -1 \end{vmatrix} = 2 \cdot \begin{vmatrix} 0 & 3 \\ 5 & -1 \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 0 & -1 \end{vmatrix} = -30 + 1 = -29$$

$$\Delta_x = \begin{vmatrix} 5 & 1 & 0 \\ 16 & 0 & 3 \\ 10 & 5 & -1 \end{vmatrix} = -29, \quad \Delta_y = \begin{vmatrix} 2 & 5 & 0 \\ 1 & 16 & 3 \\ 0 & 10 & -1 \end{vmatrix} = -87, \quad \Delta_z = \begin{vmatrix} 2 & 1 & 5 \\ 1 & 0 & 16 \\ 0 & 5 & 10 \end{vmatrix} = -145$$

$$x = \frac{\Delta_x}{\Delta} = \frac{-29}{-29} = 1$$

$$y = \frac{\Delta_y}{\Delta} = \frac{-87}{-29} = 3$$

$$z = \frac{\Delta_z}{\Delta} = \frac{-145}{-29} = 5$$

Demak, tekisliklar (1;3;5) nuqtada kesishadi.

2-misol. Berilgan $2x + 3y - z + 2 = 0$ va $x + y + 5z - 1 = 0$ tekisliklar orasidagi burchakni toping.

Echish. Ikki tekislik orasidagi burchak formulasi

$$\cos \varphi = \frac{A_1 A_2 + B_1 B_2 + C_1 C_2}{\sqrt{A_1^2 + B_1^2 + C_1^2} \cdot \sqrt{A_2^2 + B_2^2 + C_2^2}}$$

dan foydalanamiz. Berilishga ko'ra:

$$A_1 = 2, B_1 = 3, C_1 = -1 \quad \text{va} \quad A_2 = 1, B_2 = 1, C_2 = 5$$

bularni yuqoridagi formulaga qo'yamiz:

$$\cos \varphi = \frac{2 \cdot 1 + 3 \cdot 1 - 1 \cdot 5}{\sqrt{4 + 9 + 1} \sqrt{1 + 1 + 25}} = \frac{0}{\sqrt{14} \sqrt{27}} = 0 \Rightarrow \cos \varphi = 0: \varphi = \frac{\pi}{2}.$$

Demak, berilgan ikki tekislik o'zaro perpendikulyar ekan.

3-misol. M(3;-2;1) nuqtadan $3x + 6y - 5z + 2 = 0$ tekislikkacha bo'lgan masofani toping.

Echish. Berilishiga ko'ra:

$$x_0 = 3, y_0 = -2, z_0 = 1;$$

$$A = 3; B = 6; C = -5; D = 2.$$

Bularni (4) formulaga qo'yamiz, u holda

$$d = \frac{|Ax_0 + By_0 + Cz_0 + D|}{\sqrt{A^2 + B^2 + C^2}} = \frac{|9 - 12 - 5 + 2|}{\sqrt{70}} = \frac{6}{\sqrt{70}}.$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Quyidagi tekisliklar orasidagi burchak topilsin.

$$1) x - 2y + 2z - 8 = 0; \text{ va } x + z - 6 = 0$$

$$2) x + 2z - 6 = 0; \text{ va } x + 2y - 4 = 0.$$

2. $(2; 2; -2)$ nuqtadan o'tuvchi va $x - 2y - 3z = 0$ tekislikka parallel tekislik tenglamasi topilsin.

3. $(-1; -1; 2)$ nuqtadan o'tuvchi va $x - 2y - 3z = 0$ xamda $x + 2y - 2z + 4 = 0$ tekisliklarga perpendikulyar tekislikning tenglamasi yozilsin.

4. $M_1(-1; -2; 0)$ va $M_2(1; 1; 2)$ nuqtalardan o'tuvchi xamda $x + 2y + 2z - 4 = 0$ tekislikka perpendikulyar tekislikning tenglamasi yozilsin.

5. $A(4; 3; 0)$ nuqtadan $M_1(1; 3; 0)$, $M_2(4; -1; 2)$ va $M_3(3; 0; 1)$ nuqtalardan o'tuvchi tekislikkacha bo'lgan masofa topilsin.

6. $4x + 3y - 5z - 8 = 0$ va $4x + 3y - 5z + 12 = 0$ parallel tekisliklar orasidagi masofa topilsin.

Ko'rsatma. Birinchi tekislikda ixtiyoriy, masalan $(2; 0; 0)$ nuqta olib, undan ikkinchi tekislikkacha bo'lgan masofa topilsin.

Fazoda to'g'ri chiziqli tenglamalari

1. $A(a; b; c)$ nuqtadan o'tuvchi va $\vec{P}\{m; n; p\}$ vektorga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqli tenglamalari. $N(x; y; z)$ - to'g'ri chiziqli tenglamalarning ixtiyoriy nuqtasi bo'lsin. U xolda $\overrightarrow{AN} \parallel \vec{P}$ va ikki vektorning parallellik shartiga ko'ra:

$$\frac{x-a}{m} = \frac{y-b}{n} = \frac{z-c}{p} \quad (1)$$

(1) tenglamalar to'g'ri chiziqli tenglamalari deyiladi. $\vec{P}\{m; n; p\}$ vektor to'g'ri chiziqli tenglamalarning yo'naltiruvchi vektori deyiladi.

2. (1) tenglamadagi xar bir nisbatni t parametr ga tenglab, to'g'ri chiziqli tenglamalarning

$$\left. \begin{aligned} x &= mt + a, \\ y &= nt + b, \\ z &= pt + c \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

ko'rinishdagi parametrik tenglamalariga ega bo'lamiz.

3. Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamalari:

$$\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1} = \frac{z-z_1}{z_2-z_1} \quad (3)$$

4. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamasi:

$$\left. \begin{aligned} Ax + By + Cz + D &= 0, \\ A_1x + B_1y + C_1z + D_1 &= 0. \end{aligned} \right\} \quad (4)$$

5. (4) tenglamalardan bir marta y ni, ikkinchi marta x ni yo'qotib, to'g'ri chiziqning proektsiyalari bo'yicha yozilgan tenglamalariga ega bo'lamiz:

$$\left. \begin{aligned} x &= mz + a, \\ y &= nz + b. \end{aligned} \right\} \quad (5)$$

(5) tenglamalarni Berilgen

$$\frac{x-a}{m} = \frac{y-b}{n} = \frac{z-0}{1}$$

kanonik ko'rinishida yozish mumkin.

1-misol. (1;4;3) nuqtadan o'tgan va yo'naltiruvchi vektori $\vec{P}\{2;3;1\}$ bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.

Echish. (1) tenglamadan foydalanamiz. Masala shartiga ko'ra:

$a=1; b=4; c=3; m=2; n=3; p=1.$

U holda izlanayotgan to'g'ri chiziq tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{x-1}{2} = \frac{y-4}{3} = \frac{z-3}{1}.$$

2-misol. $A(-3;1;2)$ va $B(8;-2;5)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamalarini tuzing.

Echish. Berilgan ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi (3) ko'rinishda bo'lib, unga A, B nuqtalarning koordinatlarini qo'ysak,

$$\frac{x+3}{8+3} = \frac{y-1}{-2-1} = \frac{z-2}{5-2} \quad \text{yoki} \quad \frac{x+3}{11} = \frac{y-1}{-3} = \frac{z-2}{3}$$

to'g'ri chiziq tenglamalariga ega bo'lamiz.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. 1) $\begin{cases} x = z + 5 \\ y = 4 - 2z \end{cases}$ va 2) $\frac{x-3}{1} = \frac{y-2}{2} = \frac{z-3}{1}$ to'g'ri chiziqlarning xOy va xOz topilsin va to'g'ri chiziqlar yasalsin.

Ko'rsatma: To'g'ri chiziqning tenglamalarida 1) $z=0$; 2) $y=0$; deb faraz qilish kerak.

$$2. \quad \left. \begin{aligned} x + 2y + 3z - 3 &= 0 \\ 3x + y + 4z - 14 &= 0 \end{aligned} \right\} \text{ to'g'ri chiziq tenglamalarini:}$$

1) proektsiyalari bo'yicha;

2) kanonik ko'rinishda yozilsin.

To'g'ri chiziqning koordinat tekisliklaridagi izlari topilsin xamda to'g'ri chiziq va uning proektsiyalari yasalsin.

$$3. \quad \begin{aligned} 1) \quad &\begin{cases} y = 3 \\ z = 2, \end{cases} & 2) \quad &\begin{cases} y = 2 \\ z = x + 1, \end{cases} & 3) \quad &\begin{cases} x = 4 \\ z = y \end{cases} \end{aligned}$$

to'g'ri chiziqlar yasalsin va ularning yo'lantiruvchi vektorlari aniqlansin.

4. $A(3;-1;4)$ va $B(1;1;2)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziqning tenglamalari yozilsin.

$$5. \quad \begin{cases} 2x - y - 7 = 0 \\ 2x - z + 5 = 0 \end{cases} \text{ va } \begin{cases} 3x - 2y + 8 = 0 \\ z = 3x \end{cases}$$

to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak topilsin.

4-§. To'g'ri chiziq va tekislikka doir aralash masalalar

1. $\frac{x-a}{m} = \frac{y-b}{n} = \frac{z-c}{p}$ to'g'ri chiziq bilan $Ax + By + Cz + D = 0$ tekislik orasidagi burchak:

$$\sin \theta = \frac{|\vec{N} \cdot \vec{P}|}{NP} = \frac{|Am + Bn + Cp|}{NP} \quad (6)$$

Ularining parallellik sharti $(\vec{N} \parallel \vec{P})$:

$$Am + Bn + Cp = 0. \quad (7)$$

Perpendikulyarlik sharti:

$$\frac{A}{m} = \frac{B}{n} = \frac{C}{p}. \quad (8)$$

2. Tekislik bilan to'g'ri chiziqning kesishgan nuqtasi. To'g'ri chiziq tenglamalarini $x = mt + a, y = nt + b, z = pt + c$ parametrik ko'rinishda yozib, tekislikning $Ax + By + Cz + D = 0$ tenglamasidagi $x; y; z$ larning o'rniga ularning t ga nisbatan yozilgan qiymatlarini qo'yamiz. Xosil bo'lgan tenglamadan t_0 ni, so'ngra kesishgan nuqta koordinatlari x_0, y_0, z_0 ni topamiz.

3. Ikki to'g'ri chiziqning bir tekislikda yotish sharti:

$$\begin{vmatrix} a-a_1 & b-b_1 & c-c_1 \\ m & n & p \\ m_1 & n_1 & p_1 \end{vmatrix} = 0. \quad (9)$$

1-misol. Berilgan $\frac{x-1}{1} = \frac{y-1}{2} = \frac{z-1}{-2}$ to'g'ri chiziq va $2x + y - 2z - 6 = 0$

tekislik orasidagi burchakni va ularning kesishish nuqtasini toping.

Echish. To'g'ri chiziq va tekislik orasidagi burchak (6) formula yordamida aniqlanadi. Shuning uchun berilgan $A=2; B=1; C=-2; m=1; n=2; p=-2$ larni bu formulaga qo'yib topamiz:

$$\sin \theta = \frac{2 \cdot 1 + 1 \cdot 2 + (-2) \cdot (-2)}{\sqrt{2^2 + 1^2 + (-2)^2} \cdot \sqrt{1^2 + 2^2 + (-2)^2}} = \frac{8}{3 \cdot 3} = \frac{8}{9}.$$

Demak, $\theta = \arcsin \frac{8}{9}$.

Endi ularning kesishish nuqtasini topamiz, uning uchun to'g'ri chiziq tenglamasini parametrik ko'rinishga keltiramiz:

$$\begin{aligned} \frac{x-1}{1} = \frac{y-1}{2} = \frac{z-1}{-2} = t, \quad \frac{x-1}{1} = t; \quad \frac{y-1}{2} = t; \quad \frac{z-1}{-2} = t, \\ \left. \begin{aligned} x &= t+1, \\ y &= 2t+1, \\ z &= -2t+1 \end{aligned} \right\} (*) \end{aligned}$$

Buni tekislik tenglamasiga qo'yamiz:

$$2(t+1) + 2(t+1) - 2(-2t+1) - 6 = 0;$$

$$2t + 2 + 2t + 1 + 4t - 2 - 6 = 0;$$

$$8t + 3 - 8 = 0;$$

$$8t = 5; \quad t = \frac{5}{8}.$$

t ning bu qiymatini (*) ga qo'ymiz:

$$x = \frac{5}{8} + 1 = \frac{13}{8}; \quad y = \frac{10}{8} + 1 = \frac{9}{4}; \quad z = -\frac{10}{8} + 1 = -\frac{2}{8} = -\frac{1}{4}.$$

Demak, berilgan to'g'ri chiziq va tekislikning kesishish nuqtasi $\left(\frac{13}{8}; \frac{9}{4}; -\frac{1}{4}\right)$

dan iborat.

2-misol. $M(-1; 3; 0)$ nuqtadan o'tib, $2x - y - 2z - 4 = 0$ tekislikka perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.

Echish. $M_1(x_1; y_1; z_1)$ nuqtadan o'tib, $Ax + By + Cz + D = 0$ tekislikka perpendikulyar to'g'ri chiziq tenglamasi

$$\frac{x-x_1}{A} = \frac{y-y_1}{B} = \frac{z-z_1}{C}$$

formula yordamida aniqlanadi.

Demak,

$$\frac{x+1}{2} = \frac{y-3}{-1} = \frac{z}{-2}.$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. $y=3x-1$, $2z=-3x+2$ to'g'ri chiziq bilan $2x+y+z-4=0$ tekislik orasidagi burchak topilsin.
2. $\frac{x+1}{2} = \frac{y+1}{-1} = \frac{z-1}{3}$ to'g'ri chiziq $2x+y-z=0$ tekislikka paralel ekanligi, $\frac{x+1}{2} = \frac{y+1}{-1} = \frac{z+3}{3}$ to'g'ri chiziq esa shu tekislik ustida yotishi ko'rsatilsin.
3. $(-1;2;-3)$ nuqtadan o'tuvchi va $x=2$, $y-z=1$ to'g'ri chiziqqa perpendikulyar tekislikning tenglamasi yozilsin.
4. $\frac{x-2}{1} = \frac{y-3}{2} = \frac{z+1}{3}$ to'g'ri chiziqdan va $(3;4;0)$ nuqtadan o'tuvchi tekislikning tenglamasi yozilsin.
5. $\frac{x-1}{1} = \frac{y+1}{2} = \frac{z+2}{2}$ to'g'ri chiziqdan o'tuvchi va $2x+3y-z=4$ tekislikka perpendikulyar tekislikning tenglamasi yozilsin.
6. $\frac{x}{2} = \frac{y-1}{1} = \frac{z+1}{2}$ to'g'ri chiziqdan o'tuvchi va $x+2y+3z-29=0$ tekislik bilan kesishgan nuqtasi topilsin.
7. $(3;1;-1)$ nuqtaning $x+2y+3z-30=0$ tekislikdagi proektsiyasi topilsin.

5-Amaliy mashg'ulot

Funksiya va uning berilish usullari. Elementar funksiyalar va ularning grafiklari

Asosiy elementar funksiyalar

$y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_{n-1}x^{n-1} + a_nx^n$ ko'rinishdagi funksiya butun ratsional funksiya deyiladi. Bu yerda $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ – o'zgarmas sonlar, n esa natural son. Bu funksiya $(-\infty; +\infty)$ da aniqlangan.

$y = ax + b$ ($a \neq 0$) ko'rinishdagi funksiya chiziqli funksiya deyiladi. Bu yerda a, b – o'zgarmas sonlar. Bu funksiya $(-\infty; +\infty)$ da aniqlangan. Funksiyaning grafigi to'g'ri chiziqdan iborat.

$y = ax^2 + bx + c$ ($a \neq 0$) ga kvadratik funksiya deyiladi. Bu yerda a, b, c – o'zgarmas sonlar. Funksiya $(-\infty; +\infty)$ da aniqlangan. Funksiyaning grafigi paraboladan iborat.

$y = \frac{a_0x^n + a_1x^{n-1} + a_2x^{n-2} + \dots + a_{n-1}x + a_n}{b_0x^m + b_1x^{m-1} + b_2x^{m-2} + \dots + b_{m-1}x + a_m}$ ko'rinishdagi funksiyaga kasr ratsional funksiya deyiladi. Bunda $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ va $b_0, b_1, b_2, \dots, b_m$ lar o'zgarmas sonlar, n, m – natural sonlar. Bu funksiya $D = (-\infty; +\infty) \setminus \{x: b_0x^m + b_1x^{m-1} + \dots + b_m = 0\}$ da aniqlangan.

$y = \frac{a}{x}$ ($x \neq 0$) teskari proporsional bog'lanishni ifodalovchi funksiya. Bunda a – o'zgarmas son. Bu funksiya $D = (-\infty; 0) \cup (0; +\infty)$ da aniqlangan. Funksiya toq.

$y = \frac{ax+b}{cx+d}$ ko'rinishdagi funksiyaga kasr-chiziqli funksiya deyiladi. Bunda a, b, c, d – o'zgarmas sonlar. Funksiya $D = (-\infty; +\infty) \setminus \{-\frac{d}{c}\}$ to'plamda aniqlangan. Uni grafigi giperboladan iborat.

$y = x^\alpha$ ($x \geq 0$) ko'rinishdagi funksiyaga darajali funksiya deyiladi. Uni aniqlanish sohasi α ga bog'liq. Agar $\alpha > 0$ bo'lsa, $y = x^\alpha$ funksiya $(0; +\infty)$ da o'suvchi, $\alpha < 0$ da kamayuvchi bo'ladi.

$y = a^x$ ko'rinishdagi funksiyaga ko'rsatkichli funksiya deyiladi. Bunda x haqiqiy son, $a > 0$ va $a \neq 1$. Funksiya $(-\infty; +\infty)$ da aniqlangan. U $a > 1$ da o'suvchi, $0 < a < 1$ da kamayuvchi.

$y = \log_a x$ ko'rinishdagi funksiyaga logarifmik funksiya deyiladi. Bunda $a > 0$ va $a \neq 1$. Funksiya $(0; +\infty)$ da aniqlangan. U $a > 1$ da o'suvchi va $0 < a < 1$ da kamayuvchi bo'ladi.

$y = \sin x, y = \cos x, y = \operatorname{tg} x, y = \operatorname{ctg} x, y = \sec x, y = \operatorname{cosec} x$ lar trigonometrik funksiyalar deb ataladi.

$y = \sin x$ hamda $y = \cos x$ funksiyalar $(-\infty; +\infty)$ da aniqlangan 2π davrli davriy funksiyalar bo'lib, ixtiyoriy x da $-1 \leq \sin x \leq 1, \quad -1 \leq \cos x \leq 1$ tengsizliklar o'rinlidir.

$\operatorname{tg} x, \operatorname{ctg} x, \sec x, \operatorname{cosec} x$ funksiyalar $\sin x, \cos x$ funksiyalar orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\operatorname{tg} x = \frac{\sin x}{\cos x}, \operatorname{ctg} x = \frac{\cos x}{\sin x}, \sec x = \frac{1}{\cos x}, \operatorname{cosec} x = \frac{1}{\sin x}.$$

$y = \arcsin x$, $y = \arccos x$, $y = \operatorname{arctg} x$, $y = \operatorname{arcctg} x$ funksiyalar teskari trigonometrik funksiyalar deb ataladi.

Masalan: $y = \arcsin x$ funksiyaning aniqlanish sohasi $[-1; 1]$ kesmadan, qiymatlar sohasi esa $[-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}]$ dan iborat.

Mavzuga doir yechimlari bilan berilgan topshiriqlardan namunalar

1. $y = \frac{x}{x^2-1}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

Yechish: Agar maxraj nolga teng bo'lsa, funksiya aniqlanmagan bo'ladi. Demak, funksiyaning aniqlanish sohasida $x^2 - 1 \neq 0$ bo'lishi kerak. Undan $x^2 \neq 1$ yoki $x \neq \pm 1$. Shunday qilib, funksiyaning aniqlanish sohasi quyidagi uchta oraliqdan iborat: $(-\infty; -1)$; $(-1; 1)$; $(1; +\infty)$. Ularni umumlashtirib

$D(y) = (-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; +\infty)$ ni hosil qilamiz.

2. $y = \frac{1}{\sqrt{x+1}-\sqrt{x-1}}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

Yechish: Berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi quyidagi sistemadan aniqlanadi:

$$\begin{cases} x+1 \geq 0, \\ x-1 \geq 0, \\ \sqrt{x+1} \neq \sqrt{x-1}, \end{cases} \begin{cases} x \geq -1, \\ x \geq 1, \\ x+1 \neq x-1, \end{cases} \text{ yoki } \begin{cases} x \geq -1, \\ x \geq 1, \\ 1 \neq -1, \end{cases}$$

dan iborat. Bu yerda $1 \neq -1$ doimo to'g'ridir. Shuning uchun oxirgi sistemaning yechimi $x \geq 1$.

Demak, berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $[1; +\infty)$ dan iborat.

3. $y = \lg(-x^2 + 5x - 6)$ funksiyaning aniqlanish sohasi topilsin.

Yechish: Logarifmik funksiyaning aniqlanish sohasi haqidagi xossaga asosan $-x^2 + 5x - 6 > 0$ bo'lishi kerak. Uni yechamiz: $-x^2 + 5x - 6 > 0$, $x^2 - 5x + 6 < 0$, $2 < x < 3$. Demak, berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $(2; 3)$ oraliqdan iborat.

4. $y = \sqrt{3^{2x-2} + 9^x - 10}$ funksiyaning aniqlanish sohasi topilsin.

Yechish: Bu funksiya x ning $3^{2x-2} + 9^x - 10 \geq 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan qiymatlarida aniqlangan. Uni yechamiz:

$$3^{2x-2} + 9^x - 10 \geq 0, 3^{2x} \cdot 3^{-2} + 3^{2x} \geq 10, 3^{2x} \cdot (3^{-2} + 1) \geq 10, 3^{2x} \cdot \frac{10}{9} \geq 10, 3^{2x} \geq 9, 3^{2x} \geq 3^2, 2x \geq 2, x \geq 1.$$

Demak, berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $[1; +\infty)$ dan iborat.

5. $y = \sqrt{\sin x + \cos x}$ funksiyaning aniqlanish sohasi topilsin.

Yechish: Funksiya aniqlangan bo'lishi uchun ildiz ostidagi ifoda manfiymas bo'lishi kerak. Ya'ni $\sin x + \cos x \geq 0$. Uni yechamiz:

$$\sin x + \cos x \geq 0, \cos(\frac{\pi}{2} - x) + \cos x \geq 0, \sqrt{2} \cdot \cos(\frac{\pi}{4} - x) \geq 0, \cos(\frac{\pi}{4} - x) \geq 0.$$

Bu $\cos x \geq a$ ko'rinishdagi eng sodda trigonometrik tengsizlikdir. Uning yechimi:

$$-\frac{\pi}{2} + 2\pi k \leq \frac{\pi}{4} - x \leq \frac{\pi}{2} + 2\pi k \text{ dan iborat. Bundan}$$

$$-\frac{\pi}{4} + 2\pi k \leq x \leq \frac{3\pi}{4} + 2\pi k$$

ni hosil qilamiz. Demak, berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $[-\frac{\pi}{4} + 2\pi k; \frac{3\pi}{4} + 2\pi k]$ kesmadan iborat.

6. $y = \arcsin(x - 3)$ funksiyaning aniqlanish sohasi topilsin.

Yechish: $y = \arcsin x$ funksiyaning aniqlanish sohasidan foydalanamiz. Berilgan funksiya x o'rnida $x - 3$ ifoda turibdi. Demak, $-1 \leq x - 3 \leq 1$, $2 \leq x \leq 4$.

Shunday qilib, berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $[2; 4]$ kesmadan iborat.

7. $y = \arccos(x^2 - 6x + 8)$ funksiyaning aniqlanish sohasi topilsin.

Yechish: Berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $-1 \leq x^2 - 6x + 8 \leq 1$ qo'sh tengsizlikning yechimidan iborat. Dastlab $x^2 - 6x + 8 \geq -1$ tengsizlikni yechamiz:

a) $x^2 - 6x + 8 \geq -1$, $x^2 - 6x + 9 \geq 0$, $(x - 3)^2 \geq 0$. Bu tengsizlik x ning har qanday qiymatlarida o'rinli.

$$b) x^2 - 6x + 8 \leq 1, x^2 - 6x + 7 \leq 0, 3 - \sqrt{2} \leq x \leq 3 + \sqrt{2}.$$

Demak, berilgan funksiyaning aniqlanish sohasi $[3 - \sqrt{2}; 3 + \sqrt{2}]$ kesmadan iborat.

8. $y = \frac{a^x + 1}{a^x - 1}$, $a > 1$ funksiyaning juft yoki toqligi aniqlansin.

Yechish:

$$y(-x) = \frac{a^{-x} + 1}{a^{-x} - 1} = \frac{\frac{1}{a^x} + 1}{\frac{1}{a^x} - 1} = \frac{\frac{1 + a^x}{a^x}}{\frac{1 - a^x}{a^x}} = \frac{1 + a^x}{1 - a^x} = \frac{1 + a^x}{-(a^x - 1)} = -\frac{1 + a^x}{a^x - 1} = -y(x) \text{ x).$$

Demak, berilgan funksiya toq.

9. $y = \cos \frac{x}{3} + \operatorname{tg} \frac{x}{5}$ funksiya davri topilsin.

Yechish: a) $\cos \frac{x}{3} = \cos \frac{1}{3}(x + 6\pi) = \cos(\frac{1}{3}x + 2\pi) = \cos \frac{1}{3}x$; Demak, $T_1 = 6\pi$.

$$b) \operatorname{tg} \frac{x}{5} = \operatorname{tg} \frac{1}{5}(x + 5\pi) = \operatorname{tg}(\frac{x}{5} + \pi) = \operatorname{tg} \frac{x}{5} \text{ bo'lganligi uchun } T_2 = 5\pi.$$

Berilgan funksiyaning davri T_1 va T_2 larning, ya'ni 6π va 5π larning eng kichik umumiy karralisidan iborat. Ya'ni: $EKUK(5\pi; 6\pi) = 30\pi$.

10. Berilgan $y = \log_{x^2}(4 - x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

Yechish: $\log_a b$ son $b > 0$, $a > 0$, $a \neq 1$ da aniqlangani uchun

$$\begin{cases} 4 - x > 0 \\ x^2 > 0 \\ x^2 \neq 1 \end{cases} \text{ sistemani hosil qilamiz. Uni yechamiz.}$$

$$\begin{cases} x < 4 \\ x \neq -1, 0, 1 \end{cases} \text{ Demak, berilgan funksiya}$$

$(-\infty; -1) \cup (-1; 0) \cup (0; 1) \cup (1; 4)$ to'plamda ekan.

11. M i s o l. $y = \sqrt{9 - x^2}$ funksiyaning aniqlanish va o'zgarish (qiymatlar) sohalarini toping.

Y e c h i s h . Berilgan funksiya $9 - x^2 \geq 0$ bo'lganda ma'noga ega.

Bundan $x^2 \leq 9 \Rightarrow |x| \leq 3 \Rightarrow -3 \leq x \leq 3$. Demak, $D(y) = [-3; 3]$.

O'zgarish sohasi. $0 \leq 9 - x^2 \leq 9$ ga ko'ra $[0; 3]$, ya'ni $E(y) = [0; 3]$.

Asosiy elementar funksiyalarning aniqlanish va o'zgarish (qiymatlari) sohalari.

Darajali, ko'rsatkichli, logarifmik, trigonometrik va teskari trigonometrik funksiyalar asosiy elementar funksiyalar deyiladi.

<i>N^o</i>	<i>Funksiya</i>	<i>Funksiyaning aniqlanish sohasi</i>	<i>Funksiyaning o'zgarish sohasi</i>
1.	$y = kx + b$	$D(y) = R = (-\infty; \infty)$	$E(y) = \begin{cases} R, \text{ agar } k \neq 0 \\ \{0\}, \text{ agar } k = 0 \end{cases}$
2.	$y = \frac{k}{x} (k \neq 0)$	$D(y) = (-\infty; 0) \cup (0; \infty)$	$E(y) = (-\infty; 0) \cup (0; \infty)$
3.	$y = x $	$D(y) = R$	$E(y) = [0; \infty)$
4.	$y = ax^n (n \in N)$	$D(y) = R$	$E(y) = \begin{cases} R, n - \text{toq} \\ a > 0, n - \text{juft} & [0; \infty) \\ [0; \infty); a < 0 & (-\infty; 0] \end{cases}$
5.	$y = \sqrt[n]{x}$	$D(y) = [0; \infty)$	$E(y) = [0; \infty)$
6.	$y = \sqrt[n+1]{x}$	$D(y) = R$	$E(y) = R$
7.	$y = ax^2 + bx + c = a(x - x_0)^2 + y_0$ $x_0 = -\frac{b}{2a}; a \neq 0$ $y_0 = \frac{4ac - b^2}{4a}$ bunda $(x_0; y_0)$ parabola uchi	$D(y) = R$	$E(y) = \begin{cases} [y_0; \infty); a > 0 \\ (-\infty; y_0]; a < 0 \end{cases}$
8.	$y = \{x\}$	$D(y) = R$	$E(y) = [0; 1)$

9.	$y = [x]$	$D(y) = R$	$E(y) = Z$
10.	$y = a^x$	$D(y) = R$	$E(y) = (0; \infty)$
11.	$y = \log_a x (0 < a \neq 1)$	$D(y) = (0; \infty)$	$E(y) = R$
12.	$y = \sin x$	$D(y) = R$	$E(y) = [-1; 1]$
13.	$y = \cos x$	$D(y) = R$	$E(y) = [-1; 1]$
14.	$y = \operatorname{tg} x$	$D(y): x \neq \frac{\pi}{2} + \pi n$ $n \in Z$	$E(y) = R$
15.	$y = \operatorname{ctg} x$	$D(y): x \neq \pi n;$ $n \in Z$	$E(y) = R$
16.	$y = \arcsin x$	$D(y) = [-1; 1]$	$E(y) = \left[-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right]$
17.	$y = \arccos x$	$D(y) = [-1; 1]$	$E(y) = [0; \pi]$
18.	$y = \operatorname{arctg} x$	$D(y) = R$	$E(y) = \left(-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right)$
19.	$y = \operatorname{arcctg} x$	$D(y) = R$	$E(y) = [0; \pi]$

Mustaqil yechish uchun topshiriqlar

1. Berilgan $f(x) = \frac{x-2}{x^2-1}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
2. Berilgan $F(x) = \frac{x-3}{x^2-4}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
3. Funksiyaning aniqlanish sohasini toping. $f(x) = \frac{x+2}{x^2-1}$
4. Funksiyaning aniqlanish sohasini toping. $y = \frac{2x-3}{x(x+2)}$
5. Agar $f(x) = x^2 - 8x + 7$ bo'lsa, $f(4 - \sqrt{11}) = ?$
- 6.

x	-2	-1	0	1	2	4	5
$3 \cdot x - 1$							
$-3 \cdot x + 1$							

7.

y	-3	-1	0	2	3	4	6
$10 - 2 \cdot y$							
$10 + 2 \cdot y$							

8. Berilgan $y = \log_x(3-x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
9. Berilgan $y = \log_x(6-x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

10. Quyidagi funksiyalarning aniqlanish sohasini toping.

1. a) $y = \frac{2x-3}{x(x+2)}$ J: $(-\infty; -2) \cup (-2; 0) \cup (0; \infty)$ b) $y = \sqrt{x^2 - 9} + \frac{2}{\sqrt{-x}}$ J: $(-\infty; -3]$

2. a) $y = \frac{3x-2}{4x^2-16}$ J: $(-\infty; -2) \cup (-2; 2) \cup (2; \infty)$ b) $y = \sqrt{\frac{x^2}{|x|-3}}$ J: $(-\infty; -3) \cup \{0\} \cup (3; \infty)$

3. a) $y = \frac{x-3}{x^2-4}$ J: $(-\infty; -2) \cup (-2; 2) \cup (2; \infty)$ b) $y = \sqrt{\frac{(x-2)(5-x)}{(x-3)(x-4)}}$ J: $[2; 3) \cup (4; 5]$

4. a) $y = \frac{3x+2}{4x^2-4}$ J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$ b) $y = \sqrt{|x|-3} + \frac{1}{\sqrt{10-x}}$ J: $(-\infty; -3) \cup (3; 10)$

5. a) $y = \frac{x+2}{x^2-1}$ J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$ b) $y = \sqrt{7-|x-2|} + \frac{1}{\sqrt{3-2x}}$ J: $[-5; 1.5)$

6. a) $y = \frac{2x-3}{3x^2-3}$ J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$ b) $y = \sqrt{\frac{(x-2)(4-x)}{x(x+1)}}$ J: $(-1; 0) \cup [2; 4]$

7. a) $y = \frac{x-2}{x^2-1}$ J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$ b) $y = \sqrt{\frac{x^2-4x+4}{1-x^2}}$ J: $(-1; 1) \cup \{2\}$

8. a) $y = \frac{\sqrt{8+x}}{x+2}$ J: $(-8; -2) \cup (-2; \infty)$ b) $y = \frac{\sqrt{x^2-x-30}}{\sqrt{|x^2-x-42|}}$
J: $(-\infty; -6) \cup (-6; -5) \cup [6; 7) \cup (7; \infty)$

9. a) $y = \sqrt{\frac{(x-1)(3-x)}{x(4-x)}}$ J: $(-\infty; 0) \cup [1; 3] \cup (4; \infty)$ b) $y = \frac{\sqrt{x^2-3x+2} + \sqrt{x}}{\sqrt{3-x}}$
J: $[0; 1] \cup [2; 3)$

10. a) $y = \sqrt{\frac{x(x+1)}{(x-2)(4-x)}}$ J: $[-1; 0) \cup (2; 4)$ b) $y = \sqrt[4]{\frac{x^2-6x-16}{x^2-12x+11}} + \frac{2}{x^2-49}$
J: $(-\infty; -7) \cup (-7; -2] \cup (1; 7) \cup (7; 8] \cup (11; \infty)$

№ 11. Fuksiyalarning qiymatlar sohasini toping.

1. $y = \frac{3}{x-4}$ J: $(-\infty; 0) \cup (0; \infty)$ 2. $y = \frac{2x}{1+x^2}$ J: $[-1; 1]$

3. $y = 3 - \frac{x^2}{x^4+3x^2+1}$ J: $[2; 8; 3]$ 4. $y = \frac{x^2-4x+8}{x^2-4x+5}$ J: $(1; 4]$

$$\begin{array}{ll}
5. y = \frac{x^2 - 4x + 9}{x^2 - 4x + 5} & \text{J: } (1; 5] \\
6. y = |x - 1| + |x - 3| & \text{J: } [2; \infty) \\
7. y = |x + 2| + |x + 8| & \text{J: } [6; \infty) \\
8. y = \sqrt{x^2 - 2x + 10} & \text{J: } [3; \infty) \\
9. y = \sqrt{3x^2 - 4x + 5} & \text{J: } \left[\sqrt{\frac{11}{3}}; \infty \right) \\
10. y = \sqrt{x - x^2} & \text{J: } \left[0; \frac{1}{2} \right]
\end{array}$$

№ 12. Agar $y = f(x)$ funksiya berilgan bo'lsa:

$$\begin{array}{ll}
1). f(x) = \left(1 + \frac{1}{x}\right)(7 + 4x), f\left(-\frac{1}{2}\right) = ? & \text{J: } -5 \\
2). f(x) = \left(3 + \frac{1}{x}\right)(11 + 4x), f\left(-\frac{1}{2}\right) = ? & \text{J: } 9 \\
3). f(x) = \left(x - \frac{1}{3}\right)\left(2x + \frac{1}{4}\right), f(1) = ? & \text{J: } 1,5 \\
4). f(x) = \left(2x - \frac{1}{3}\right)\left(4x + \frac{1}{4}\right), f\left(\frac{1}{2}\right) = ? & \text{J: } 1,5 \\
5). f(x) = (2x + 1)\left(\frac{3}{x} - 3\right), f(-1) = ? & \text{J: } 6 \\
6). f\left(\frac{3x - 2}{2}\right) = x^2 - x - 1, f(1) = ? & \text{J: } -\frac{5}{9} \\
7). f(x) = \frac{1 - x}{1 + x}, f\left(\frac{1}{x}\right) + \frac{1}{f(x)} = ? & \text{J: } \frac{4x}{1 - x^2} \\
8). f(x) = \frac{2x + 1}{3x - 1}, f\left(\frac{1}{x}\right) + f\left(\frac{x}{9}\right) = ? & \text{J: } -\frac{1}{3} \\
9). f(x) = \frac{x^2 - 1}{x^2}, g(x) = \frac{1}{x^2}, f(g(2)) = ? & \text{J: } -15 \\
10). f\left(\frac{3x - 2}{2}\right) = x^2 - x - 1, f(0) = ? & \text{J: } -\frac{11}{9}
\end{array}$$

13. Quyidagi funksiyalar juft yoki toq bo'la oladimi?

$$\begin{array}{l}
1) y = x^3 - x^3; \quad 2) y = x^2 \cos x; \quad 3) y = x^2 \cdot \sin \frac{1}{x}; \\
4) = \log_2 \frac{1 + \sin x}{1 - \sin x}; \quad 5) y = x + \frac{1}{x}, x \in [2; 4]; \\
6) = \frac{1}{x + \frac{1}{x}}; \quad 7) y = \sin(\cos x); \quad 8) y = |\cos^3 x|; \\
9) y = x - \frac{1}{x}; \quad 10) y = \frac{2^x + 2^{-x}}{2^x - 2^{-x}}.
\end{array}$$

Javob: 1) toq; 2) juft; 3) toq; 4) toq; 5) juft ham emas, toq ham emas;

6) toq; 7) juft; 8) juft; 9) toq; 10) toq.

6-Amaliy mashg'ulot

Funksiya limiti. Funksiya uzluksizligi

1-misol. Tanga tashlash tajribasini qaraymiz. A hodisa gerbli tomonning tushishi bo'lsin. $P(A)$ ni aniqlang.

Yechish. Tanga bir jinsli va deformatsiyalanmagan bo'lsa tanga tashlashning ko'p seriyasida gerbli va raqamli tomonlarning tushishi o'rtacha bir xil takrorlanadi. Bundan ko'rinadiki, A hodisa yuz berishining nisbiy chastotasi μ ning qiymatlari $\frac{1}{2}$ son atrofida tebranadi. Demak, $P(A) = \frac{1}{2}$ bo'ladi.

2-misol. Yashikda 20 ta shar yotibdi: 8 ta oq, 12 ta qora. Yashikdan tavakkaliga bitta shar olindi. Uning qora shar bo'lishi ehtimoli nimaga teng?

Yechish. Tajriba juda ko'p marta takrorlansa sharlarning teng imkoniyatli yekanligini nazarga olsak qora sharning chiqish nisbiy chastotasi taqriban yashikdagi sharlar ichida qora sharlar tashkil qiladigan ulushga teng deb hisoblasa bo'ladi, ya'ni $\mu = \frac{12}{20}$. Demak, $P(A) = \frac{12}{20} = \frac{3}{5} = 0,6$.

3-misol. Kub formasidagi o'yin soqqasi yoqlari 1 dan 6 gacha nomerlangan. O'yin soqqasi tashlanganda 5 raqami tushishi (A hodisa) ehtimolini toping.

Yechish. Agar soqqa bir jinsli materialdan tayyorlangan bo'lsa, uning yoqlarining tushishi teng imkoniyatli bo'ladi va $P(A) = \frac{1}{6}$ deb hisoblash mumkin.

4-misol. 36 dastali kartadan bitta karta tortib olindi. Chillik turdagi kartaning kelib chiqish ehtimoli qanday?

Yechish. Bunda hammasi bo'lib 36 mavjud hol bo'lib, ulardan 9 tasida A hodisa (chillik chiqishi) ro'y beradi. Demak, nisbiy chastota $\mu = 9/36$, ya'ni $P(A) = \frac{9}{36} = \frac{1}{4}$.

5-misol. Berilgan obektga qarab to'pdan bir xil sharoitda 5 ta o'q uzildi va 2 tasi mo'ljalga tegdi. A hodisa o'qning nishonga tegishi. O'qning nishonga tegishining nisbiy chastotasi qanday bo'ladi?

Yechish. $\mu = \frac{2}{5}$ bo'ladi. Chunki bunda 5 ta hol mavjud hol bo'lib, ulardan 2 tasida A hodisa ro'y bergan. Demak, $P(A) = \frac{2}{5}$ bo'lishi ravshan.

Klassik ta'rifda A hodisaning ehtimoli

$$P(A) = \frac{m}{n}$$

tenglik bilan aniqlanadi, bu erda **m** – tajribaning A hodisaning ro'y berishiga qulaylik tug'diruvchi elementar natijalar soni, **n** – sinovning muhim bo'lgan elementar natijalari jami soni.

1-misol. Yashikda 20 ta shar bo'lib, ular 1 dan 20 gacha nomerlangan. Yashikdan tavakkaliga bitta shar olindi. Bu sharining nomeri 20 dan katta bo'lmaslik (A hodisa) ehtimoli qanday?

Yechish. Yashikdagi sharlarning istalganining nomeri 20 dan oshmaydi. Shuning uchun bu hodisaning ro'y berishiga qulaylik tug'diruvchi hodisalar soni va barcha mumkin bo'lgan hollar soni o'zaro teng: $m=n=20$ va $P(A) = \frac{m}{n} = 1$. Bu holda A hodisa muqarrar hodisadir.

2-misol. Yashikda 10 ta shar yotibdi: 4 ta oq, 6 ta qora. Yashikdan tavakkaliga bitta shar olindi. Uning qizil shar bo'lish (A hodisa) ehtimoli qanday?

Yechish. Yashikda qizil shar yo'q, ya'ni $m=0$, lekin, $n=10$. Demak, $P(A) = \frac{m}{n} = \frac{0}{10} = 0$. Bu holda A hodisa mutlaqo yuz bermaydigan hodisadan iborat.

3-misol. Tanga tashlash tajribasini qaraymiz. A hodisa gerbli tomonning tushishi. Tanga deformatsiyalanmagan va bir jinsli materialdan tayyorlangan. Tanga tashlashning ko'p seriyada gerbli va raqamli tomonlarining tushishi o'rtacha bir xil takrorlanadi deb kutish mumkin. Buni tanganing ikkala tomoni «Teng huquqli» (teng imkoniyatli) deb ifodalash mumkin. A hodisa yuz berishining μ nisbiy chastotasi $\frac{1}{2}$ son atrofida tebranadi. Shunday qilib, $\mu = \frac{N_A}{N}$ va demak,

$$P(A) = \frac{1}{2} \text{ bo'ladi.}$$

4-misol. Yashikda 15 ta shar bor: 10 ta oq, 5 ta qora. Ushlab ko'rish bilan ularni farqlab bo'lmaydi. Yashikdan tavakkaliga bitta shar olindi. Uning qora shar bo'lish ehtimolini toping.

Yechish. Tajriba juda ko'p marta takrorlansa sharlarning «teng huquqli»ligidan qora sharning chiqish (ehtimoli) chastotasi taqriban yashikdagi sharlar ichida qora sharlar tashkil qiladigan «ulush» ga teng bo'ladi deb hisoblash mumkin, ya'ni $\frac{5}{15}$. Demak, $P(A) = \frac{5}{15} = \frac{1}{3}$.

5-misol. 36 ta kartali dastadan bitta karta tortib olindi. Chillik turdagi kartaning kelib chiqish ehtimoli qanday?

Yechish. Bunda hammasi bo'lib 36 ta mavjud hol bo'lib, ulardan 9 tasida A hodisa (chillik chiqishi) ro'y beradi. Demak, nisbiy chastota $\mu = \frac{9}{36}$ bo'lib,

$$P(A) = \frac{9}{36} = \frac{1}{4}.$$

6-misol. Berilgan ob'ektga qarab miltiqdan bir sharoitda 5 ta o'q uzildi va 2 tasi mo'ljalga tegdi. A hodisa o'qning nishonga tegishi. O'qning nishonga tegishining nisbiy chastotasi qanday bo'ladi?

Yechish. Nisbiy chastota $\mu = \frac{2}{5}$ bo'ladi. Chunki, bunda 5 ta hol mavjud bo'lib, ulardan 2 tasida A hodisa ro'y bergan. Bu holda $P(A) = \frac{2}{5}$ bo'lishi ravshan.

7-misol. Kub formasidagi o'yin soqqasi yoqlari 1 dan 6 gacha nomerlangan. O'yin soqqasi tashlanganda 5 raqami tushishi (A hodisa) ehtimolini toping.

Yechish. Soqqa bir jinsli materialdan tayyorlangan deb faraz qilsak, uning yoqlarining tushishi «teng huquqli» bo'ladi va $P(A) = \frac{1}{6}$ deb hisoblash mumkin.

8-misol. 21 ta standart va 10 ta nostandart detal solingan Yashikni tashish vaqtida bitta detal yo'qolgan, biroq qanday detal yo'qolgani ma'lum emas. Yashikni tashishdan keyin tavakkaliga olingan detal standart detal bo'lib chiqdi. Standart detal yo'qolgan bo'lishi (A hodisa) ehtimolini toping.

Yechish. Olingan standart detal yo'qolmaganligi ravshan. Qolgan $21+10-1=30$ ta detalning istalgan biri yo'qolgan bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning orasida $21-1=20$ ta detal standartdir. Standart detal yo'qolgan bo'lish ehtimoli $P(A) = \frac{20}{30} = \frac{2}{3}$ ga teng.

9-misol. Raqamlari har xil ikki xonali son o'ylangan. O'ylangan son tasodifan aytilgan raqamlari har xil ikki xonali son bo'lishi ehtimolini toping.

Yechish. 10 dan 99 gacha sonlar ikki xonali. Raqamlari bir xil ikki xonali sonlar 11, 22, 33, 44, 55, 66, 77, 88, 99 lar bo'lib, ular 9 ta. 10 dan 99 gacha 90 ta son bor. Raqamlari har xil ikki xonali sonlar $90-9=81$ ta. Demak, $P(A) = \frac{1}{81}$ bo'ladi.

10-misol. Texnik nazorat bo'limi tasodifan ajratib olingan 100 ta kitobdan iborat partiyada 5 ta yaroqsiz kitob topdi. Yaroqsiz kitoblar chiqishi nisbiy chastotasini toping.

Yechish. Yaroqsiz kitoblar chiqishi A hodisa bo'lsin. A hodisa nisbiy chastotasi A hodisa ro'y bergan sinovlar sonining o'tkazilgan sinovlar jami soniga nisbatiga teng: $\mu(A) = \frac{5}{100} = 0,05$.

11-misol. Ikkita o'yin soqqasi tashlangan. Soqqalarning yoqlarida tushgan ochkolar yig'indisi 7 ga teng bo'lish ehtimolini toping.


Yechish. A- hodisa ochkolar soni yig'indisi 7 ga teng hollar soni 6 ta bo'ladi:

1	6,	6	1,	2	5,	5	2,	3	4,	4	3
---	----	---	----	---	----	---	----	---	----	---	---

$$\text{Demak, } P(A) = \frac{1}{6}.$$

12-misol. Tanga ikki marta tashlangan. Hech bo'lmaganda bir marta «gerbli» tomon tushishining ehtimolini toping.

Yechish. Birinchi tashlaganda «gerb» tushish ehtimoli A_1 bo'lsin. Bunda quyidagi hollar kuzatiladi:



Ko'rinib turibdiki, to'rtta tajribada «gerb» ning hech bo'lmaganda tushishi uchta holatda kuzatiladi. Demak, hech bo'lmaganda bir marta «gerbli» tomon tushish (A hodisa) ehtimoli $P(A) = \frac{3}{4}$.

13-misol. Yashikda 12 ta shar yotibdi: 3 ta oq, 4 ta qora va 5 ta qizil sharlar. Tavakkaliga bitta shar olindi. Uning qora shar chiqishi (A hodisa) ehtimoli qanday?

Yechish. Bu yerda $m=4$, $n=12$, $P(A) = \frac{m}{n} = \frac{4}{12} = \frac{1}{3}$.

14-misol. Yashikda 10 ta shar bor: 6 ta oq va 4 ta qora. Tavakkaliga 2 ta shar olindi. Ikkala shar ham oq bo'lishi (A hodisa) ehtimoli qanday?

Yechish. Bu masalada mumkin bo'lgan barcha hollar soni $n = C_{10}^2 = \frac{10 \cdot 9}{1 \cdot 2} = 45$ ta. A hodisaga qulaylik tug'diruvchi hollar soni esa $m = C_6^2 = \frac{6 \cdot 5}{1 \cdot 2} = 15$. Demak, $P(A) = \frac{m}{n} = \frac{15}{45} = \frac{1}{3}$.

15-misol. Karton kartochkalarda A, O, L, M harflar yozilgan. Kartochkalar aralashtirilib, qator qilib terildi. OLMA so'zining kelib chiqishi (A hodisa) ehtimoli qanday?

Yechish. To'rtta kartochkani har xil joylashtirish bir-biridan ularning tartibi bilan farq qiladi. Mumkin bo'lgan barcha hollar soni $n = 4!$ elementdan o'rin almashtirishlar soniga teng: $n = p_4 = 4! = 24$. Bu hollar «teng huquqli», birgalikda bo'lmagan va bir xil imkoniyatli. OLMA so'zining kelib chiqishiga qulaylik tug'diruvchi hollar soni m birga teng. Demak, $P(A) = \frac{m}{n} = \frac{1}{24}$.

16-misol. 2000 loteriya bileti sotilgan. Bunda 1 ta biletga 100000 so'm, 4 ta biletga 50000 so'm, 10 ta biletga 20000 so'm, 20 ta biletga 10000 so'm, 165 ta biletga 5000 so'm, 400 ta biletga 1000 so'mdan yutuq chiqishi belgilangan qolgan biletlar yutuqsiz. Bitta biletga 10000 so'mdan kam bo'lmagan yutuq chiqish ehtimoli qanday?

Yechish. Bu yerda $m = 1 + 4 + 10 + 20 = 35$, $n = 2000$ chunki, 35 ta biletga 10000 so'mdan yuqori yutuqlar belgilangan.

$$\text{Shuning uchun, } P(A) = \frac{m}{n} = \frac{35}{2000} = 0,0175.$$

17-misol. Yashikda 6 ta oq va 4 ta qora shar yotibdi. A hodisa yashikdan tavakkaliga olingan 5 ta sharning 3 tasi oq va 2 tasi qora shar bo'lishidan iborat. Bu hodisaning ehtimoli nimaga teng?

Yechish. Sharlarning umumiy soni 10 ga teng. Shuning uchun barcha mumkin bo'lgan hollar soni $n = C_{10}^5 = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8 \cdot 7 \cdot 6}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5} = 252$; 3 ta oq sharni

$$m_1 = C_6^3 = \frac{6 \cdot 5 \cdot 4}{3!} = 20 \text{ usul bilan; } 2 \text{ ta qora sharni } m_2 = C_4^2 = \frac{4 \cdot 3}{2!} = 6 \text{ usul bilan}$$

olish mumkin. Sharlarni tanlashning bu ikkala usulini birlashtirib 3 ta oq va 2 ta qora shar tanlash uchun qulaylik tug'diruvchi hollar soni $m = m_1 \cdot m_2 = 120$ tengligini topamiz. Demak, $P(A) = \frac{m}{n} = \frac{120}{252} = \frac{10}{21}$.

18-misol. O'yin soqqasi ikki marta tashlandi. Ikkala tashlanganda ham tushgan ochkolar yig'indisi 8 teng bo'lish ehtimolini toping.

Yechish. Birinchi tashlanganda i ochkoning, ikkinchi tashlanganda esa j ochkoning tushishini A_{ij} orqali belgilaymiz. U holda

$$A_{11} A_{12} \dots A_{16}$$

$$A_{21} A_{22} \dots A_{26}$$

$$\dots\dots\dots$$

$$A_{61} A_{62} \dots A_{66}$$

Ko'rinishdagi 36 ta hodisani o'yin soqqasini ikki marta tashlashdan iborat tajribaning elementar natijalari sifatida qarash mumkin. Tushgan ochkolar yig'indisi 8 ga teng (A hodisa) bo'lishiga qulaylik tug'diruvchi natijalar $A_{17}, A_{26}, A_{35}, A_{44}$ dan iborat. Demak, $m=4, n=36$ bo'lib, $P(A) = \frac{4}{36} = \frac{1}{9}$ bo'ladi.

Ehtimollar nazariyasining aksiomalari va ulardan foydalanib ehtimollarni hisoblash

1. Agar A va B lar birgalikda bo'lmagan hodisalar bo'lsa, ular yig'indisining ehtimoli shu hodisalar ehtimollarining yig'indisiga teng:

$$P(A+B)=P(A)+P(B)$$

Buni oddiy qo'shish aksiomasi deyiladi.

2. Ikkita birgalikda bo'lgan A va B hodisalardan kamida bittasining ro'y berish ehtimoli bu hodisalarning ehtimollari yig'indisidan ularning birgalikda ro'y berish ehtimolini ayirish natijasiga teng:

$$P(A+B)=P(A)+P(B)-P(AB)$$

3. Ikkita erkli hodisaning birgalikda ro'y berish ehtimoli bu hodisalar ehtimollarining ko'paytmasiga teng:

$$P(A \cdot B)=P(A) \cdot P(B)$$

4. Ikkita bog'liq hodisaning birgalikda ro'y berish ehtimoli ulardan birining ehtimolini ikkinchisining shartli ehtimoliga ko'paytirilganiga teng:

$$P(AB)=P(A)P(B/A)$$

$$P(AB)=P(B)P(A/B)$$

5. A hodisaning ro'y bermasligidan iborat hodisa $\bar{A}$ ga qarama-qarshi hodisa deyiladi va $\bar{A}$ bilan belgilanadi. Bunda:

$$P(A)+P(\bar{A})=1, \quad P(\bar{A})=1-P(A)$$

6. Biror tajribada $A_1, A_2 \dots, A_n$ birgalikda bo'lmagan hodisalardan bittasi ro'y berishi mumkin bo'lsa, $A_1, A_2 \dots, A_n$ lar hodisalarning to'liq guruhini tashkil etadi deyiladi.

1-masala. Yashikda 10 ta oq, 15 ta qora, 20 ta ko'k va 25 ta yashil sharlar bor. Tavakkaliga bitta shar olindi. Olingan sharning 1) oq, 2) qora, 3) ko'k, 4) yashil, 5) oq yoki qora, 6) ko'k yoki yashil, 7) oq, qora yoki yashil bo'lish ehtimolini toping.

Yechish. Barcha sharlarning soni $n=10+15+20+25=70$.

1) Olingan sharning oq bo'lish ehtimoli $P(O)=\frac{10}{70}=\frac{1}{7}$;

$$2) P(Q) = \frac{15}{70} = \frac{3}{14};$$

$$3) P(K) = \frac{20}{70} = \frac{2}{7};$$

$$4) P(Ya) = \frac{25}{70} = \frac{5}{14};$$

$$5) P(O+Q) = P(O) + P(Q) = \frac{1}{7} + \frac{3}{14} = \frac{5}{14};$$

$$6) P(K+Ya) = P(K) + P(Ya) = \frac{2}{7} + \frac{5}{14} = \frac{9}{14};$$

$$7) P(O+Q+K) = 1 - \frac{5}{14} = \frac{9}{14}.$$

2-masala. A hodisa o'yin soqqasini tashlash tajribasida 2 ga karrali sonning tushishi, B hodisa 3 ga karrali sonning tushishi. A+B hodisa nimani anglatadi. AB hodisa-chi?

Yechish. A+B (hodisa) yig'indisi A va B hodisalaridan hech bo'lmaganda birining yuz berishidan iborat bo'lgani uchun A+B hodisa 2, 3, 4, 6 sonlardan birortasining tushishidan iborat bo'ladi.

AB hodisa deb A va B hodislarning birgalikda yuz berishidan iborat hodisa bo'lgani uchun bizning holda AB hodisa 6 ochko tushishini anglatadi.

3-masala. O'yin soqqasi tashlandi. Bunda juft sondagi ochko tushish ehtimoli nimaga teng?

Yechish. A_i bilan i-ochkoning tushishini belgilaymiz ($i=1, \dots, 6$). A hodisa A_2, A_4, A_6 hodisalaridan hech bo'lmaganda birining yuz berishidan iborat: $A = A_2 + A_4 + A_6$.

A_2, A_4, A_6 hodisalar juft-jufti bilan birgalikda bo'lmagan hodisalaridir, u holda qo'shish aksiomasiga ko'ra

$$P(A) = P(A_2 + A_4 + A_6) = P(A_2) + P(A_4) + P(A_6) = \frac{1}{6} + \frac{1}{6} + \frac{1}{6} = \frac{3}{6} = \frac{1}{2}$$

4-masala. Yashikda 15 ta shar bo'lib, ulardan 5 tasi qizil. Yashikdan tavakkaliga 3 ta shar olindi. Olingan sharlardan hech bo'lmaganda bittasi qizil bo'lishi (A hodisa) ehtimolini toping.

Yechish. Olingan uchta sharlardan hech bo'lmaganda bittasi qizil bo'lish talabi quyidagi uchta birgalikda bo'lmagan hodisadan istalgan biri ro'y berganda bajariladi: B – bitta shar qizil, ikkitasi boshqa rangda, C – ikkita shar qizil, bittasi boshqa rangda, D – uchala shar ham qizil. Bizni qiziqtirayotgan A hodisa bu hodisalarning yig'indisi ko'rinishida yozilishi mumkin:

$$A = B + C + D$$

Qo'shish aksiomasiga ko'ra:

$$P(A)=P(B)+P(C)+P(D) \quad (1)$$

B, C, D hodisalarning ehtimollarini topamiz:

1) 15 ta shardan 5 tasi qizil. Tavakkaliga 3 ta shar olingan. Olingan sharlar ichida ikkitasi qizil bo'lish ehtimolini topamiz. Sinovning mumkin bo'lgan elementar natijalari 15 shardan 3 ta sharni ajratib olish usullari soniga, ya'ni 15 ta elementdan 3 tadan tuzish mumkin bo'lgan guruhlashlar soni C_{15}^3 ga teng.

Bizni qiziqtirayotgan hodisaga (3 ta shar orasida 1 ta qizil shar bor) qulaylik tug'diruvchi natijalar sonini hisoblaymiz: 5 ta qizil shar orasida 1 ta qizil sharni C_5^1 usul bilan olish mumkin; bunda qolgan $5-3=2$ shar boshqa rangda bo'lishi lozim: 2 ta boshqa rangli sharni esa $15-5=10$ ta boshqa rangli sharlar orasidan C_{10}^2 usul bilan olish mumkin. Demak, B hodisaga qulaylik tug'diruvchi natijalar soni $C_5^1 \cdot C_{10}^2$ bo'ladi.

Izlanayotgan ehtimol hodisaga qulaylik tug'diruvchi natijalar sonining barcha elementar natijalar soniga nisbatiga teng:

$$P(B)=\frac{C_5^1 C_{10}^2}{C_{15}^3} = \frac{5 \cdot 10 \cdot 9}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5} \cdot \frac{10 \cdot 9}{1 \cdot 2} : \frac{15 \cdot 14 \cdot 13}{1 \cdot 2 \cdot \dots \cdot 15} = \frac{45}{91}$$

2) Xuddi yuqoridagidek $P(C)$ ni topamiz:

$$P(C)=\frac{C_5^2 C_{10}^1}{C_{15}^3} = \frac{20}{91}$$

3) $P(D)$ ham xuddi shunday topiladi:

$$P(D)=\frac{C_5^3}{C_{15}^3} = \frac{2}{91}$$

Bularni (1) ga qo'yib topamiz:

$$P(A)=\frac{45}{91} + \frac{20}{91} + \frac{2}{91} = \frac{67}{91}$$

5-masala. Ikkita birgalikda bo'lmagan A_1 va A_2 hodisalarning har birining ro'y berish ehtimoli R_1 va R_2 ga teng.

Bu hodisalardan faqat bittasining ro'y berish ehtimolini toping:

Yechish. Hodisalarni quyidagicha belgilaymiz: B_1 – faqat A_1 hodisa ro'y berdi; B_2 – faqat A_2 hodisa ro'y berdi.

B_1 hodisaning ro'y berishi $A_1 \bar{A}_2$ hodisaning ro'y berishiga teng kuchli (birinchi hodisa ro'y berdi va ikkinchi hodisa ro'y bermadi), ya'ni $B_1 = A_1 \bar{A}_2$ B_2 hodisaning ro'y berishi $\bar{A}_1 A_2$ hodisaning ro'y berishiga teng kuchli (ikkinchi hodisa ro'y berdi va birinchi hodisa ro'y bermadi), ya'ni $B_2 = \bar{A}_1 A_2$. Shunday qilib, A_1 va A_2 hodisalardan faqat bittasining ro'y berish ehtimolini topish uchun B_1 va B_2 hodisalardan qaysi biri bo'lsa ham birining ro'y berish ehtimolini topish kifoya. B_1 va B_2 hodisalar birgalikda emas, shuning uchun qo'shish aksiomalarini qo'llash mumkin:

$$P(B_1+B_2)=P(B_1)+P(B_2) \quad (2)$$

Endi B_1 va B_2 hodisalarning har birining ehtimolini topish kerak. A_1 va A_2 hodisalar erkli, demak, A_1 va A_2 hodisalar, shuningdek, $\bar{A}_1$ va A_2 hodisalar ham erkli, shu sababli qo'shish (teoremasini) aksiomasini qo'llash mumkin:

$$P(B_1)=P(A_1 \bar{A}_2)=P(A_1)P(\bar{A}_2)=p_1q_1$$

$$P(B_2)=P(\bar{A}_1A_2)=P(\bar{A}_1)P(A_2)=q_1p_2$$

(2) formulaga ko'ra A_1 va A_2 hodisalardan faqat birining ro'y berish ehtimoli $P(B_1+B_2)=p_1q_1+q_1p_2$

6-masala. Birinchi yashikda 2 ta oq va 10 ta qora shar bor. Ikkinchi yashikda 8 ta oq va 4 ta qora shar bor. Har bir yashikdan bittadan shar olindi. Bu ikkala shar ham oq bo'lish ehtimoli qanday?

Yechish. A bilan oq sharning birinchi yashikdan, B bilan oq sharning ikkinchi yashikdan chiqish hodisalarini belgilaymiz. Bunda A va B lar birgalikda bo'lmagan, ya'ni erkli hodisalar. Bu yerda A va B hodisalarning birgalikda yuz berish hodisasi AB ning ehtimolini topishimiz kerak.

Shartga ko'ra $P(A)=\frac{2}{12}=\frac{1}{6}$, $P(B)=\frac{8}{12}=\frac{2}{3}$. Ko'paytirish aksiomasiga ko'ra:

$$P(AB)=P(A) \cdot P(B)=\frac{1}{6} \cdot \frac{2}{3}=\frac{1}{9}$$

7-masala. O'yin soqqasi 4 marta tashlandi. Har safar 1 raqami tushishi (A hodisa) ehtimolini toping.

Yechish. Masalaning ehtimollarini ko'paytirish aksiomasiga asosan Yechish qulay. 1 raqamining har safar tushish ehtimoli $\frac{1}{6}$ ga teng. Bu hodisalar o'zaro erkli bo'lgani uchun

$$P(A)=P(A_1 \cdot A_2 \cdot A_3 \cdot A_4)=P(A_1) \cdot P(A_2) \cdot P(A_3) \cdot P(A_4)=\frac{1}{6} \cdot \frac{1}{6} \cdot \frac{1}{6} \cdot \frac{1}{6}=\frac{1}{1296}$$

8-masala. Ikki mergan nishonga qarata o'q uzmoqda. Bitta o'q uzganda nishonga tegish ehtimoli birinchi mergan uchun 0,7, ikkinchi mergan uchun 0,8 ga teng. Bir yo'la o'q uzishda merganlardan faqat bittasining nishonga tekizish ehtimolini toping.

Yechish. B_1 – faqat A_1 hodisa ro'y berdi, B_2 – faqat A_2 hodisa ro'y berdi deb belgilab olamiz. Bunda $B_1=A_1 \bar{A}_2$, $B_2=\bar{A}_1A_2$ bo'lib, $A_1 \bar{A}_2$ – birinchi mergan o'qi nishonga tegdi, ikkinchisiniki tegmadi, $\bar{A}_1A_2$ – birinchi merganning o'qi nishonga tegmadi, ikkinchisiniki tegdi demakdir. B_1 va B_2 hodisalarning har birining ehtimolini topish kerak. A_1 va A_2 hodisalar erkli, demak, A_1 va $\bar{A}_2$, shuningdek $\bar{A}_1$ va A_2 hodisalar ham erkli. Shu sababli qo'shish aksiomasini qo'llash mumkin:

$$P(B_1)=P(A_1 \bar{A}_2)=P(A_1)P(\bar{A}_2)=0,7 \cdot (1-0,8)=0,14$$

$$P(B_2)=P(\bar{A}_1A_2)=P(\bar{A}_1)P(A_2)=(1-0,7) \cdot 0,8=0,24$$

Demak, A_1 va A_2 hodisalarning faqat bittasining ro'y berish ehtimoli

$$P(B_1+B_2)=P(B_1)+P(B_2)=0,14+0,24=0,38$$

ga teng.

9-masala. Avariya ro'y berganligi haqida signal berish uchun ikkita erkli ishlaydigan signalizator o'rnatilgan. Avariya yuz berganda signalizatorlar ishlay boshlash ehtimoli birinchisi uchun 0,95 ga, ikkinchisi uchun 0,9 ga teng. Avariya yuz berganda faqat bitta signalizator ishlay boshlash ehtimolini toping.

Yechish. Avariya yuz berganda birinchi signalizator ishlay boshlash ehtimoli A_1 , ikkinchi signalizator ishlay boshlashi A_2 hodisa bo'lsin.

B_1 – faqat A_1 hodisa ro'y berdi, B_2 – faqat A_2 hodisa ro'y berdi deb belgilab olamiz. Bunda $B_1=A_1 \bar{A}_2$, $B_2=\bar{A}_1 A_2$ bo'lib, $A_1 \bar{A}_2$ – birinchi signalizator ishladi, $\bar{A}_1 A_2$ – ikkinchi signalizator ishladi demakdir. $P(B_1)$ va $P(B_2)$ larni topishimiz kerak. A_1 va A_2 hodisalar erkli, shuningdek, $\bar{A}_1$ va A_2 hamda A_1 va $\bar{A}_2$ hodisalar ham erkli.

$$P(B_1)=P(A_1 \bar{A}_2)=P(A_1)P(\bar{A}_2)=0,95 \cdot (1-0,9)=0,95 \cdot 0,1=0,095$$

$$P(B_2)=P(\bar{A}_1 A_2)=P(\bar{A}_1)P(A_2)=(1-0,95) \cdot 0,9=0,05 \cdot 0,9=0,045$$

$$P(B_1+B_2)=P(B_1)+P(B_2)=0,095+0,045=0,14$$

Bu esa A_1 va A_2 hodisalardan faqat bittasining ro'y berish ehtimolidir.

10-masala. O'yin soqqasi 4 marta tashlandi. Har safar 1 raqami tushish ehtimolini toping.

Yechish. Masalani ehtimolining klassik ta'rifi bo'yicha yechish mumkin. Biz bu yerda ehtimolarni ko'paytirish aksiomasidan foydalanamiz.

1 raqamining har safar tushish ehtimoli 1 ga teng. 4 ta erkli hodisaning birgalikda ro'y berish ehtimolini topishimiz kerak. Soqqani 4 marta tashlaganda 1 raqami tushish hodisalari $A_1 A_2 A_3 A_4$ bo'lsin.

U holda

$$P(A)=P(A_1 \cdot A_2 \cdot A_3 \cdot A_4)=P(A_1) \cdot P(A_2) \cdot P(A_3) \cdot P(A_4)=\frac{1}{6} \cdot \frac{1}{6} \cdot \frac{1}{6} \cdot \frac{1}{6} = \frac{1}{1296}$$

11-masala. A va B lar qandaydir hodisalar bo'lsin. $\overline{AB}$ hodisasini soddaroq yozing.

Yechish. $\overline{AB}$ hodisa $\bar{A}$ va $\bar{B}$ hodisalarning birgalikda ro'y berishidan iborat, ya'ni A hodisa ham B hodisa ham ro'y bermasligini anglatadi. $\bar{A} \bar{B}$ hodisaga qarama-qarshi hodisa $\overline{\bar{A} \bar{B}}$ esa A va B hodisalarinng hech bo'lmaganda birining ro'y berishidan iborat. Shuning uchun $\overline{\bar{A} \bar{B}}$ ni $A+B$ ko'rinishda yozish mumkin.

12-masala. Uchta mergan nishonga bittadan o'q uzdi. Birinchi merganning nishonga urishi A_1 , ikkinchi merganning nishonga urishi A_2 va uchinchi merganning nishonga urishi A_3 bo'lsin. Uchala mergan nishonga urdi hodisasini formula ko'rinishida yozing.

Yechishi. Shartga ko'ra A_1 hodisa ham, A_2 hodisa ham, A_3 hodisa ham ro'y bergan. Demak, bu hodisalar o'zaro erkli va birgalikda ro'y bergan. Shuning uchun $A_1A_2A_3$ hodisa ro'y bergan.

13-masala. Kutubxona stelajida tasodifiy tartibda 15 ta darslik terib qo'yilgan bo'lib, ulardan 5 tasi muqovalangan. Kutubxonachi ayol tavakkaliga uchta darslik oldi. Olingan darsliklarning hech bo'lmaganda bittasi muqovali bo'lish (A hodisa) ehtimolini toping.

Yechish. A hodisa (olingan uchta darslikdan hech bo'lmaganda bittasi muqovali) va $\bar{A}$ hodisa (olingan uchta darslikdan hech bo'lmaganda bittasi muqovali emas) qarama-qarshi hodisalardir. Shuning uchun:

$$P(A) + P(\bar{A}) = 1$$

(qarama-qarshi hodisalarning ehtimolari yig'indisi 1 ga teng). Bundan:

$$P(A) = 1 - P(\bar{A})$$

$\bar{A}$ hodisaning ro'y berish ehtimoli

$$P(\bar{A}) = \frac{C_{10}^3}{C_{15}^3} = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8}{3!} : \frac{15 \cdot 14 \cdot 13}{3!} = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8}{15 \cdot 14 \cdot 13} = \frac{24}{91}$$

Endi $P(A)$ ni hisoblaymiz:

$$P(A) = 1 - P(\bar{A}) = 1 - \frac{24}{91} = \frac{67}{91}$$

10-Amaliy mashg'ulot

Matematik modellar va ularni qurish prinsiplari. Algoritmilar nazariyasi.

Kasbiy faoliyat sohasida matematik usullar

ALGORITM TÚSINIĞI

Algoritm túsiniğı fundamental matematikalıq túsiniqlerdiń biri bolıp, matematikanıń «Algoritm teoriiyası» dep atalıwshı bóliminiń obekti bolıp esaplanadı.

Algoritm – bul bazı bir protsessti anıq súwretlew hám onı orınlaw ushın kórsetpe bolıp esaplanadı.

«**Algoritm**» sózi IX ásirde jasağan Orta Aziyalı matematik Ál-Xorezmiydiń atın Evropa tillerine awdarma etiw nátiyjesinde kelip shıqqan. Ál-Xorezmiy arifmetikalıq ámellerdi orınlaw qádesin (algoritmin) kórsetip bergen.

Bul algoritmler házirgi waqıtta da mektep pratikasında isletilip kelinbekte. Algoritmlestiriwdiń wazıypası algoritmlerdi dúziwge (jazıwğa) úyretiwden ibarat bolıp, orınlawshı (adam, robot, EEM) algoritmlerdi orınlaw qádesine súyengen halda bir ǵana nátiyjege erisiwi lazım. Bul bolsa

algoritmterdi jazıw qádesine bazı bir talaplar qoyadı. Bular tómendegi qásiyetler kórinisinde ańlatıladı.

1° *Anıqlıq qásiyeti.*

Algoritm kórsetpeleri bir mánili bolıwı zárúr. Algoritm orınlanatuǵın ámellerdiń zárúr izbe-izligin anıq belgilep beredi. Algoritmniń ámelge asıw protsesi konkret esapshıǵa baylanıslı bolmaydı.

2° *Ulıwmalıq qásiyeti.*

Algoritmniń baslanǵısh maǵlıwmatlardıń ruxsat etilgen qálegen mánislerinde jaramlı bolıwı zárúr.

3° *Nátiyjelilik qásiyeti.*

İzlenip atırǵan nátiyjeni dáslepki maǵlıwmatlardıń ruxsat etilgen mánisleri ushın shekli sandaǵı jeterli túrde ápiwayı adımlardan soń alıwı múmkin bolıwı kerek.

Bir neshe ámeller keltirip óteyik:

1. $y = \frac{7x-4}{5x+3}$ ańlatpasınıń mánisin tabıń.

№	Ámellerdi orınlaw tártibi
1.	x ti 7 ge kóbeytiw
2.	(1) niń nátiyjesinen 4 ti alıw
3.	x ti 5 ke kóbeytiw
4.	(3) niń nátiyjesine 3 ti qosıw
5.	(2) niń nátiyjesin (4) tiń nátiyjesine bóliw

yamasa

№	Ámellerdi orınlaw tártibi
1.	$a := x * 7$
2.	$b := a - 4$
3.	$c := x * 5$
4.	$d := c + 3$
5.	$y := b : d$

2. Kesindini teń ekige bóliw (tsirkul' hám sıızıǵısh járdeminde) algoritmi.

№	Háreketlerdi orınlaw tártibi
1.	Tsirkul'diń ushın A tochkaǵa qoyıw
2.	Tsirkul'diń ayaqların AB ǵa teń etip ashıw

3.	Sheńber júrgiziw
4.	Tsirkul'diń ushın B tochkaǵa qoyıw
5.	Sheńber júrgiziw
6.	Sheńberdiń kesilisiw tochkalarınan tuwrı sıızıq júrgiziw
7.	Tuwrı sıızıq hám kesindiniń kesilisiw tochkası belgilenedi.

3. $y = 5^n$, $n \in \mathbb{Z}$

№	Ámellerdi orınlaw tártibi
1.	Eger $n > 1$ bolsa (4) ke ótedi, keri jaǵdayda (2) ge.
2.	Eger $n = 1$ bolsa (5) ke ótedi, keri jaǵdayda (3) ge.
3.	Eger $n = 0$ bolsa (6) ǵa ótedi, keri jaǵdayda (7) ge.
4.	$y = \underbrace{5 * 5 * \dots * 5}_{n \text{ ret}}$ (8) ge ótedi
5.	$y = 5$, (8) ge ótedi
6.	$y = 1$, (8) ge ótedi
7.	$y = \frac{1}{\underbrace{5 \cdot 5 \dots 5}_{n \text{ ret}}}$
8.	Tamam

4. Baslawısh klass matematika sabaqlarında tómendegi sıyaqlı ápiwayı algoritmler qollanamız: Qosıw algoritmi (onlıq sanaq sistemasında).

1) Ekinshi qosılıwshını qana birlikleri sáykes keletuǵın halda birinshi qosılıwshınıń astına jazamız.

2) Birliklerdi qosamız: Eger qosındı 10 nan kishi bolsa, juwaptı birlikler qanasına jazamız hám keyingi onlıq qanaǵa ótemiz.

3) Eger qosındı 10 nan úlken yamasa teń bolsa, $10 + \tilde{N}_0$ sıyaqlı oylap ($\tilde{N}_0$ – bir qanalı san) $\tilde{N}_0$ dı birlikler qanasına jazamız hám birinshi qosılıwshınıń onlıqlarına 1 di qosamız, soń onlıqlar qanasına qosıwǵa ótemiz.

4) Joqarıdaǵını onlıqlar menen, soń júzlikler menen hám t.b. tákirarlaymız. Barlıq qana birlikleri qosılǵannan soń tawsamız.

Tap sol sıyaqlı alıw, kóbeytiw hám bóliw algoritmlerin dúzip shıǵıwımız múmkin.

Tapsırmalar:

y tiń mánisin tabıw algoritmin dúziń.

$$1. y = \frac{x^2 - 4x + 6}{7x + 6} \quad 2. y = \frac{x^2 - 4x + 6}{2x - 1}$$

$$3. y = \frac{x^2 - 4x + 5}{x - 1} \quad 4. y = \frac{7x^3 + 3}{2x - 1} \quad 5. y = \frac{5x^4 + 3}{x - 2}$$

6. Onlıq санақ sistemasında alıw algoritmin dúziń.

7. Onlıq санақ sistemasında kóbeytiw algoritmin dúziń.

8. Onlıq санақ sistemasında bóliw algoritmin dúziń.

9. 10 qosılıwshınıń qosındısıń tabıw algoritmin dúziń.

10. Kóp qanalı sanlardı salıstırıw algoritmin dúziń.

11 – 15. Ańlatpanıń mánisin tabıw algoritmin dúziń.

$$11. ((36:2-14)(42:2-14)+20):2$$

$$12. ((27:3-21)(102:3-33)+140):100$$

$$13. (44:2+8)(77:11+3):(227+73)$$

$$14. (19:2+12):((65-55):2):(27-17)$$

$$15. (21:3+23):((42+18):6):(42:14)$$

16 – 20. Bólsheklerdi ulıwma bólimge keltiriw algoritmin dúziń.

$$16. \frac{121}{846} \text{ hám } \frac{71}{246} \quad 17. \frac{1}{33} \text{ hám } \frac{1}{44} \quad 18. \frac{8}{81} \text{ hám } \frac{21}{486}$$

$$19. \frac{101}{744} \text{ hám } \frac{203}{845} \quad 20. \frac{5}{77} \text{ hám } \frac{3}{44}$$

21 – 25. Teńlemelerdi sheshiw algoritmin dúziń.

$$21. (6-3x) \cdot 4 + 2x - 1 = 3(x-5) \quad 22. (5x-12) \cdot 8 - 76 = 32(x+2)$$

$$23. (18-2x):2 + 10x = 9(3x-2) \quad 24. (64x+24):8 + 7 = 2(x-4)$$

$$25. (105+5x):5 - 7x = 10x(2x-21)$$

Ózbekinshe jumis

№	Ózbekinshe jumis temalari
II-semestr	
1	Matematika pániniń predmeti. Matematikaniń pán hám oqıw predmeti sıpatındaǵı rawajlanıw basqıshları, hár bir basqıshqa sáykes maqseti hám wazıypaları.
2	Matematika pániniń dúnya mádeniyatı hám tarixındaǵı tutqan ornı.
3	Aksiomatik metod haqqında túsinik. Evklid geometriyası, Evklidtiń “Negizlar” asari.
4	Kompleks sanlardıń geometriyalıq hám trigonometriyalıq kórinisi.
5	Kvantorlar haqqında túsinik.
6	Ekinshi tártipli iymek sıızıq teńlemesin ápiwayılastırıw.
7	Ekinshi tártipli sırttıń anıqlaması. Sfera. Ellipsoid. Giperboloid. Paraboloid.
8	Tiykargı elementar funkciyalar, olardıń qásiyetleri. Funkciyalardıń jup-taqlıǵı, periodlıǵı, grafigi.
9	Tuwındı járdeminde funkciyanı tekseriw hám grafigin jasaw.
10	Anıq integraldıń qollanılıwı.
11	Mashhur qadimiy máseleler
12	Fibonachchi sanları.
13	Tórt boyaw mashqalası.
14	Pifagor sanları. Fermanıń ullı teoreması hám onıń dılilleniwi
	Jami:

GLOSSARIY

3. GLOSSARIY

English	Qaraqalpaqsha	Русский	Izoh
A set	Kóplik	множество	To'plam tushunchasi matematikaning boshlang'ich tushunchalark bo'lib, u ta'rifsiz qabul qilinadi.
An element of a set	Kóplik elementi	Элементы множества	To'plamni tashkil qiluvchi obyektlar uning elementlari deyiladi.
The operations on sets	Kóplikler ústinde ámeller	Операция над множеством	birlashma, kesishma, ayirma amallari mavjud.
To contain	Óz ishine alńw.	принадлежить	A to'plam a ni o'z ichiga oladi $\Leftrightarrow a \in A$
A subset	Úles kóplik	подмножество	Agar A to'plamning har bir elementi B to'plamning ham elementi bo'lsa, A to'plam B to'plamning <u>to'plamostisi</u> deyiladi va $A \subset B$ yoki $A \subseteq B$ orqali belgilanadi.
The union	Birikpe	объединение	A va B to'plamlarning kamida biriga tegishli bo'lgan barcha elementlardan tashkil topgan $A \cup B$ to'plam A va B to'plamlarning birlashmasi yoki yig'indisi deyiladi.
The difference	Ayirma..	разность	A va B to'plamlarning <u>ayirmasi</u> deb, A to'plamning B to'plamga kirmagan barcha elementlardan tashkil topgan to'plamga aytiladi va $A \setminus B$ yoki $A-B$ ko'rinishlarda belgilanadi
An empty set	Bos kóplik	Пустое множество	Birorta ham elementga ega bo'lmagan to'plamga aytiladi va u $\emptyset$ orqali belgilanadi.
Intersection	Kesispe	Пересечение	A va B to'plamlarning <u>kesishmasi</u> yoki ko'paytmasi deb, A va B to'plamlarning barcha umumiy, ya'ni A ga ham, B ga ham tegishli elementlardan tashkil topgan $A \cap B$ to'plamga aytiladi.

To belong	Tiyisli bolıq	Принадлежит	$\Leftrightarrow$ To contain e.g. $a \in A$
Reflexive relation	Refleksivlik qatnası	Отношении рефлексивности	Agar $\forall x \in A$ uchun xRx bo'lsa, R – binar munosabat <u>refleksiv</u> munosabat deyiladi
Symmetric relation	Simmetriklik qatnası	Отношение симметричности	Agar xRy bo'lishidan yRx bo'lishi kelib chiqsa, ya'ni $R^{-1} = R$ shart bajarilsa, R - <u>simmetrik</u> munosabat deyiladi
Linear ordered set	qisman tartiblangan to'plam	Частично упорядоченный	Agar R - qisman tartib munosabati bo'lsa, (A, R) <u>qisman tartiblangan to'plam</u> , R chiziqli tartib munosabati bo'lsa, (A, R) <u>chiziqli tartiblangan to'plam</u> deyiladi.
Completely ordered set	Toliq tartiplengen kóplik	Упорядоченное множество	Har qanday bo'sh bo'lmagan to'plamostisi minimal elementga ega chiziqli tartiblangan to'plam <u>to'liq tartiblangan to'plam</u> deyiladi.
Equivalence relation	ekvivalentlik qatnası	Отношение эквивалентности	Refleksiv, simmetrik va tranzitiv bo'lgan binar munosabat <u>ekvivalentlik</u> munosabati deyiladi
Binary relation	Binarlıq qatnası	Бинарное отношение	$A \times B$ ning ixtiyoriy qism to'plamiga binary munosabat deyiladi
Inverse of Binary Relation	Keri qatnası	Обратное отношение	Agar R – ikki o'rinli, ya'ni binar munosabat bo'lsa, u holda $\{(a, b) / \forall (b, a) \in R^1\}$ munosabat R^1 -munosabatga teskari munosabat deyiladi va R^{-1} orqali belgilanadi. R^{-1} munosabat R ning <u>inversiyasi</u> deyiladi.
Factorizing a set	Kóplikti faktorlaw	Факторизация множества	A to'plamning bo'sh bo'lmagan to'plamostilaridan tuzilgan $B = \{A_\alpha / \alpha \in \Omega\}$ to'plam berilgan bo'lsin. Agar B ixtiyoriy ikkita elementining kesishmasi bo'sh to'plmadan iborat bo'lib, B ning

			barcha elementlarining yig'indisi A ga teng bo'lsa, u holda B to'plam A to'plamning <u>bo'laklangani</u> deyiladi.
An ordered set	tartiblangan to'plam	Упорядоченное множество	A to'plamda R - tartib munosabat berilgan bo'lsin, (A, R) juftlik <u>tartiblangan to'plam</u> deyiladi.
Composition of binary relations	Binar munosabatlarning kompozitsiyasi	Композиция бинарных отношений	P va Q binar munosabatlar bo'sh bo'lmagan A to'plamda berilgan bo'lsin. U holda $P \circ Q = \{(a,c) \mid \exists b \in A, (a,b) \in Q \wedge (b,c) \in P\}$ to'plam P va Q binar munosabatlarning <u>kompozitsiyasi</u> deyiladi.
Unary relation	Unar munosabat	Унарное отношение	Bir o'rinli munosabat esa A ning ixtiyoriy to'plamostisi bo'lar ekan. Bir o'rinli munosabat <u>unar munosabat</u> deyiladi.
Transitivity relation	Tranzitivlik munosabat	Отношение транзитивности	Agar xRy va yRx bo'lishidan xRz bo'lishi kelib chiqsa, ya'ni $R \circ R \subset R$ shart bajarilsa, R - <u>tranzitiv</u> munosabat deyiladi;
Equivalent class	Ekvivalentlik sinfi		A to'plamda aniqlangan R -ekvivalentlik munosabati berilgan bo'lsin. $\forall a \in A$ uchun $\bar{a}$ orqali A to'plamning a ga ekvivalent bo'lgan barcha elementlarini belgilaymiz va to'plamni a element yaratgan ekvivalentlik sinfi deb ataymiz.
A subset	Qism to'plam	Подмножество	Agar B to'plamning har bir elementi
Conjunction of propositions	Mulohazalarning kon'yunksiyasi.	Конъюнкция высказываний	A va V mulohazalar rost bo'lgandagina rost bo'lib, qolgan hollarda yolg'on bo'ladigan mulohaza A va V mulohazalarning <u>kon'yunksiyasi</u> deyiladi va $A \wedge V$ yoki $A \& V$ ko'rinishda belgilanadi
Disjunction	Mulohazalar	Дизъюнкция	A va V mulohazalar <u>diz'yunksiyasi</u>

of propositions	<u>diz'yunksiyasi.</u>	высказивании	deb, A va V mulohazalarning ikkalasi ham yolg'on bo'lgandagina yolg'on, qolgan hollarda rost bo'ladigan $A \vee V$ mulohazaga aytiladi.
Implication of propositions	Aytımlar <u>implikasiyasi</u>	Импликация высказивании	A va V mulohazalar <u>implikasiyasi</u> deb, A mulohaza rost va V mulohaza yolg'on bo'lgandagina yolg'on, qolgan hollarda rost bo'ladigan $A \rightarrow V$ mulohazaga aytiladi.
Equivalence of propositions	Aytımlar <u>ekvivalensiyasi.</u>	Эквиваленция высказивании	A va V mulohazalar <u>ekvivalensiyasi</u> deb, A va V mulohazalarning ikkalasi ham yolg'on yoki rost bo'lganda rost, qolgan hollarda yolg'on bo'ladigan $A \leftrightarrow V$ mulohazaga aytiladi
A proposition	Aytım	Высказивание	matematik mantiqning asosiy tushunchalaridan bo'lib, u rost yoki yolg'onligi bir qiymatli aniqlanadigan darak gapdir.
The converse of a proposition	Aytımın biykarı	Отрицание высказивании	Berilgan A mulohaza rost bo'lganda yolg'on, A mulohaza yolg'on bo'lganda rost bo'ladigan mulohaza A mulohazaning <u>inkori</u> deyiladi va $\neg A$ yoki $\bar{A}$ orqali belgilanadi.
Propositions algebras	Aytımlar algebrasi	Алгебра высказиваний	Mulohazalar to'plamini M harfi bilan belgilaylik. U holda M to'plam, unda bajariladigan barcha $\neg, \wedge, \vee, \rightarrow, \leftrightarrow$ amallar bilan birgalikda <u>mulohazalar algebrasi</u> deb yuritiladi. Mulohazalar algebrasini qisqacha MA orqali belgilaymiz.
A predicate	Predikat.		Agar biror M to'plamning a elementi haqida aytilgan tasdiq a ning o'rniga M ning aniq bitta elementini qo'ysak mulohaza aylansa, u holda bunday tasdiqlarni <u>bir o'zgaruvchili mulohazaviy formula</u> yoki <u>bir o'zgaruvchili</u>

			<u>predikat</u> deb ataymiz.
A null predicate	Nol predikat.	Нулевой предикат	Har qanday mulohazaga noll predikat deb ataladi.
Predicates with n variables	n o'zgaruvchili predikat.	Предикат с n неизвестной	Agar $P(x_1, \dots, x_n)$ tasdiq $x_1, \dots, x_n$ o'zgaruvchilarning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan har qanday qiymatlarida mulohazaga aylansa, n – <u>o'zgaruvchili predikat</u> yoki n o'zgaruvchili mulohazaviy formula deyiladi. Bu erda n - 0, 1, 2 va hokazo manfiy bo'lmagan butun qiymatlar qabul qiladi
The converse of a predicate	predikattin inkori	Отрицание предикатов	$M \neq \emptyset$ to'plamda aniqlangan bir o'rinli $P(x)$ - predikat berilgan bo'lsin. U holda $P(x)$ - <u>predikatning inkori</u> deb har qanday $x \in M$ element uchun $P(x)$ - predikat rost bo'lganda yolg'on bo'ladigan; $P(x)$ yolg'on bo'lganda rost bo'ladigan $\neg P(x)$ predikatga aytiladi.
graph	Graf	граф	Graf deb, shunday $G_1(X, E)$ ikki to'plam juftligiga aytiladiki, bunda X-bo'sh bo'lmagan uchlar to'plami $\{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ bo'lib, E ning elementlari esa Xning ikki elementli to'plam ostilaridir, ya'ni $E = \{(x_1, x_2)\}$.
Definition	ta'rif	Определение	muayyan tushuncha yoki terminning unga xos muhim belgilarini aks ettiruvchi qisqacha ifodasi; biron predmet yoki voqeahodisaning mazmunmohiyatini ochib, tushuntirib berish
Set	Kóplik	множества	To'plam tushunchasi matematikaning boshlang'ich tushunchasidir.
Scheme	sxema	схема	(yun. schema — qiyofa, tashqi ko'rinish) — 1) muayyan qurilma, inshoot, mashina va boshqalarning umumiy muhim tomonlari shartli belgilar bilan masshtabsiz ifodalangan chizma; 2) biror narsaning umumiy tasviri, bayoni,

			ifodasi.
line	Sızıq	линия	geom.ning asosiy tushunchalaridan biri. To'g'ri chiziq geometriyada boshlang'ich (ta'riflanmaydigan) tushuncha deb olinadi.
design	Konstruksiya	Конструкция	(lot. constructs -tuzilish, qurilish) — 1) mashina, inshoot yoki o'zel va detallarning tuzilish sxemasi, shuningdek, mashina, inshoot, o'zellar hamda ularning detallari. K. da kerakli qism va elementlarining shakli hamda o'zaro joylashishi, ularni birlashtirish usullari, o'zaro ta'siri va kanday materiallardan yasalishi hisobga olinadi
intsendent	insindent	инцидент	Agar x_1 va x_2 lar qandaydir qirraga (x_i, x_j) ga tegishli bo'lsa, u holda Berilgan qirra x_i va x_j "insindent" deyiladi, x_i va x_j lar esa qo'shni nuqtalar deyiladi.
Simple graph	Ápiwayı graf	простой обыкновенный	Agar graf sirtmoqsiz yoki qirralari karrali bo'lmasa, bunda graf oddiy graf deyiladi.
Matrix of graph	Graf matritsasi	Матрица графа	Matritsa ustunlari va qatorlari graf uchlarini nomerlariga mos keladi, uning elementi c_n x_1 va x_j birlashtiruvchi qirralar sonidir
Isomorphism graphof	Izomorf graflar	Изоморфизм графов	graflar faqat nomerlash bilan farqlanadigan bo'lsa, ular chizilishda farqlanib, bu holda matritsa grafni izomorfizmga bo'lgan aniqlikda belgilaydi deymiz. Bunday graflar izomorf graflar deyiladi.
Grafs	Graf yoylari	Дуга графов	Orientirli D graf deb, bir juft $D=(X,A)$ ga aytamiz. Bu yerda X uchlarning ixtiyoriy to'plami va A – uchlarning tartiblangan juftligini to'plamidir, uchlarning tartiblangan juftligini "yoylar" deymiz.
partial graph	Qisman graf	частичный граф	Graf $G_0(x_0, E_0)$ $G(x, E)$ ning qisman grafi deb ataladi, agarda u berilgan grafning barcha uchlariga ega bo'lib, ammo barcha qirralariga

			ega bo'lmasa, balki qisman qirralariga ega bo'lsa, ya'ni $x_0 = x, E_0 \in E$
Planar graph	Planar graf	Планарный граф	Graf (tekis) planar deyiladi, agarda Berilgen grafga izomorf bo'lgan grafni tekislikda qirralari kesishmagan holda tasvirlash mumkin bo'lsa.
Line graph	Graf yo'li	Маршрут	m uzunlikdagi marshrut deb grafning qirralarini shunday ketma ketligiga aytiladiki yonma-yon bo'lgan qirralarini uchlari uchma-uch tushishlari kerak.
Connected graph	Bog'langan graf	Связанный граф	Grafning ikki uchi bog'langan deyiladi, agar shu uchlarni birlashtiruvchi yo'l bo'lsa. Agar grafning har qanday uchini birlashtiruvchi marshrut mavjud bo'lsa, bunday graf bog'langan graf deyiladi
chain	zanjir	цепь	Barcha qirralari turli bo'lgan (yo'l) marshrut zanjir deb ataladi. Agar zanjir turli uchlardan o'tsa, u oddiy zanjir deb ataladi.
cycle	Sikl	цикл	Yopiq zanjir "sikl" deb ataladi, turli uchlardan o'tuvchi "sikl", oddiy "sikl"dir.
tree	Daraxt	дерево	Siklga ega bo'lmagan bog'langan graf daraxt deb ataladi, uning qirralari esa shoxlaridir.
forest	O'rmon	лес	Siklsiz bog'lanmagan graf o'rmon deb ataladi.
net	To'r	сеть	$S=(G, C)$ juftlik to'r deb ataladi, Bu yerda $G=(X,A)$ ixtiyoriy orientirlangan (yo'naltirilgan)dir.
A permutation	O`rin almashtirish	<u>перестановка</u>	O`rin almashtirish deb, n ta turli elementlarning bir-biridan faqat joylashishi bilan farq qiluvchi

of objects			kombinasiyalarga aytiladi. Ularning soni $P_n = n!$ formula bilan aniqlanadi. Bu yerda $n! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdots n$, $0! = 1$
Repeatings	O`rinlashtirish	<u>размещения</u>	O`rinlashtirish</b> deb, $n$ ta turli elementdan $m$ tadan tuzilgan kombinasiyalar bo`lib, ular bir-biridan yo elementlarning tarkibi, yo ularning tartibi bilan farq qilishiga aytiladi.
Combinations	Gruppashlar	<u>группирования</u>	Gruppashlar deb, bir-biridan hech bo`lmaganda bitta elementi bilan farq qiluvchi n ta elementdan m tadan tuzilgan kombinasiyalarga aytiladi. Ularning soni $C_n^m = \frac{n!}{m!(n-m)!}$ formula bilan aniqlanadi.
Combinatory	Kombinatorika	<u>комбинаторика</u>	Kombinatorika – bu diskret matematikaning diskret to`plam elementlarini berilgan qoidalar asosida tanlash va joylashtirish bilan bog`liq bo`lgan masalalarni yechish usullarini o`rganuvchi bo`limidir.
The elements	Elementlar	Элементы	Birikmalarni tashkil etgan predmetlar <i>elementlar</i> deyiladi.
A vector	Vektor.	<u>Вектор</u>	Uzunliklari teng yo`nalishi bir xil bo`lgan barcha yo`nalgan kesmalar to`plamini ozod vektor yoki qisqacha vektor deb ataladi
A unit vector	Birlik vektor.	<u>Ед.вектор</u>	Uzunligi birga teng bo`lgan vektor birlik vektor yoki ort deyiladi.
Zero vector	Nol vektor.	Нуловой вектор	Boshi bilan oxiri ustma – ust tushgan vektor nol vektor deyiladi.
Ellipse	Ellips	Эллипс	Ellips deb tekislikdagi shunday nuqtalarning geometrik o`rniga aytiladiki, bu nuqtalarning har biridan fokuslar deb ataluvchi F_1 va F_2

			nuqtalargacha bo'lgan masofalari yig'indisi berilgan PQ kesma uzunligiga teng bo'ladi. Bu yerda $PQ > F_1F_2$.
Eccentricity of ellipse	Ekstsentrismet.	Эксцентриситет	Ellipsning fokuslari orasidagi masofaning ellipsning katta o'qi uzunligiga nisbati shu ellipsning deb ataladi. Ekstsentrismet e harfi bilan belgilanadi.
The directrix of ellipse	Direktrisa.	Директриса	Ellips ning berilgan F fokusga mos direktrisasi deb, uning fokal o'qiga perpendikulyar va markazdan shu F fokus yotgan tomonda $\frac{a}{e}$ masofada turuvchi to'q'ri chiziqqa aytiladi.
Hyperbola	Giperbola.	Гипербола	Tekislikda har bir nuqtasidan <i>fokuslar</i> deb ataluvchi F_1 va F_2 nuqtalargacha bo'lgan masofalar ayirmasining absolyut qiymati berilgan kesma uzunligiga teng bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rniga <i>giperbola</i> deb ataladi.

Tiycarđı hám qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Tiycarđı adabiyotlar:

1. Jo'raev T. va boshqalar. Oliy matematika asoslari. 1-tom. T.: «O'zbekiston». 1995.
2. Jo'raev T. va boshqalar. Oliy matematika asoslari. 2-tom. T.: «O'zbekiston». 1999.
3. Farmonov Sh. va boshq. "Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika". T.: "Turon-Bo'ston", 2012 y.
4. Tojiev Sh.I. Oliy matematika asoslaridan masalalar yechish. T.: «O'zbekiston». 2002 y.
5. Susanna S. Epp. Discrete Mathematics with Applications, Fourth Edition. Printed in Canada, 2011
6. Jane S Paterson Heriot-Watt (University Dorothy) A Watson Balerno (High School) SQA Adhámnced Higher Mathematics. Unit 1. This edition published in 2009 by Heriot-Watt University SCHOLAR. Copyright 2009 Heriot-Watt University.
7. Herbert Gintis , Mathematical Literacy for Humanists, Printed in the United States of America, 2010

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017 йил, 488 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, "Ўзбекистон", 2016 йил, 56 бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017 йил, 48 бет.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017 йил, 104 бет.
5. Hamedohám N.A., Sadikohám A.V., Laktaehám I.SH. "Matematika" – Gumanitar yo'nalishlar talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: "Jahon-Print" 2007y.
6. Azlarov T.A., Mansurov X. "Matematik analiz" 1-qism. T.: "O'qituvchi", 1994y.
7. Baxhámlov S.B. va boshq. "Analitik geometriyadan mashqlar to'plami". T.: Universitet, 2006 y.
8. College geometry, Csaba Vincze and Laszlo Kozma, 2014 Oxford University

9. Introduction to Calculus, Volume I,II by J.H. Heinbockel Emeritus Professor of Mathematics Old Dominion University, Copyright 2012, All rights reserved
Paper or electronic copies for noncommercial use may be made freely without explicit.

Internet saytlarii

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
5. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
6. <http://ziyonet.uz> — Ziyonet axborot-tálim resurslari portal